



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

10/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

10/2024

<https://buxdu.uz>

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 10, oktabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
МАТЕМАТИКА *** MATHEMATICS *** МАТЕМАТИКА		
Tuxtayev E.E.	Nokritik immigratsiyali Galton-Vatson tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarining ergodiklik xossalari va invariant o'lchovlar	3
Jumayev J., Muxsinova N.Sh.	Mahsulot sifatiga omillarning ta'sirini ikki faktorli eksperiment usuli asosida tadqiq olish	10
Эрмаматова Ф.Э.	Формула Карлемана для обобщённой системы Коши-Римана в многомерной бесконечной области	15
Safarov R.Ch., Toshqulova D.A., Daminova M.S.	Sferik koordinatalar sistemasida Laplas tenglamasi uchun Dirixle masalasi	22
Рустамов С.У.	Интегральная формула Коши для $\mathbb{H}$ -регулярной функции в ограниченной области	28
Ахмедов О.Ш.	Моделирование вибрации зубчатых передач привода локомотива	32
Tuychiyeva S.T.	Aniq integrallarni chegirmalar yordamida hisoblash	39
Normurodov Sh.B.	Ayrim funksional tenglamalarni yechish metodikasi haqida	46
Husenova J.T.	Parametrli chiziqli tenglamalar va tenglamalar sistemasiga keltiriladigan integral tenglamalar	52
Hasanov I.I., Temirova Sh.M.	Investigation of an initial boundary value problem for a fractional order equation with the Riemann-Liouville operator	59
Erkinboyev Q.S.	Uchinchi tip klassik soha avtomorfizmlarining ba'zi tatbiqlari	67
Eshimbetov M.R.	Qirralari yarim cheksiz bo'lgan ochiq yulduzsimon grafda Shredinger tenglamasi uchun δ' ulanish shartli Koshi masalasi	71
Gaybullaev R.K., Solijanov G.O., Urazmatov G.H.	Maximal solvable extensions of low dimensional Heisenberg Lie algebras	76
Эрмаматова З.Э.	Коэффициентная обратная задача для уравнения Гельмгольца	83
Durdiev U.D.	An investigation into the inhomogeneous integro-differential equation for the transverse vibration of a beam	90
Ярашов И. Б.	Приближённые методы нахождения корней алгебраических уравнений с помощью программы MathCad	95

FIZIKA *** PHYSICS *** ФИЗИКА		
Саидханов Н.Ш.	Изучение неоднородности угловых распределений вторичных частиц в ядерных взаимодействиях с помощью статистических методов	100
Kuvandikov O.K., Shodiev Z.M., Sulaymanov O.A.	Magnetic properties of rare Earth chromo borates ($\text{SmCr}_3(\text{BO}_3)_4$) at high temperatures	106
Saparbayev A.A.	D18 donor polimer va turli akseptorlar bilan olingan faol qatlamlarning optik xossalari	112
Quchqarov B.X., Mamatkarimov O.O., Xolmirzayev A.A.	Yarimo'tkazgichli nanostrukturalarda elektrofizik xususiyatlarining mahalliy diagnostikasi	119
Jurayev B.Sh., Ergashev S.Sh., Khamrakulov F.B.	TIC 354493993 ikki modali va yuqori amplitudali Delta Scuti	126
Qo'chqarov B.H., Xolmirzayev A.A., Izzatillayev X.	Fotokonvertorli konsentratsiyali elektr stansiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari	131
G'aniyev S.Y.	Suvli issiqlik akkumulyatorni harorat rejimini modellashtirishda Matlab/Simulink sistemasidan foydalanish	136
Muminov Kh.A.	Optical absorption in defects of amorphous semiconductors	141
Abdukarimov A.A., Yokubbayev A.A.	Manufacturing technology and physical photoelectric characteristics of TiO_2 -based solar cell with semiconductor properties	147
Икрамов Р.Г., Нуриддинова М.А., Султонов Б.К., Холмирзаев О.Т.	Новый метод расчёта плотности состояний электронов в дефектах аморфных полупроводников	154
KIMYO *** CHEMISTRY *** ХИМИЯ		
Shamsiyeva M.B., Abduraxmonova P.E.	Charm sanoati chiqindisi-mezdrani, terini qayta ishlash jarayonlarida qo'llashning nazariy tadqiqi	159
BIOLOGIYA *** BIOLOGY *** БИОЛОГИЯ		
Тўхтаева Г.П., Шодиева С.Н., Мирзомуротов М.Ф.	Ўтлоқи-аллювиал тупроқларнинг мелиоратив ҳолатини ўрганиш	167

NOKRITIK IMMIGRATSIYALI GALTON-VATSON TARMOQLANUVCHI TASODIFIY JARAYONLARINING ERGODIKLIK XOSSALARI VA INVARIANT O'LCHOVLAR

Tuxtayev Erkin Egamberdiyevich,

Qarshi davlat universiteti

Algebra va geometriya kafedrası tayanch doktoranti

tukhtaev_erkin@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada tasodifiy jarayonlar nazariyasida muhim o'rin tutadigan va keng amaliy tatbiqlarga ega bo'lgan Galton-Vatson immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlarning muhim bir xarakteristikasi bo'lgan parchalanish parametri keltirilgan. Bunda jarayonning subkritik holi uchun teoremlar olingan. Shuningdek, ishda jarayon subkritik bo'lganda invariant o'lchov hosil qiluvchi funksiyasining yaqinlashishi va uning aniq ko'rinishini ifodalovchi muhim teorema isbotlangan. $\{u_j, j \in S\}$ sonlar subkritik immigratsiyali jarayonlari uchun invariant taqsimot tashkil etishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tarmoqlanuvchi jarayon, hosil qiluvchi funksiya, o'tish ehtimolligi, tasodifiy miqdor, invariant taqsimot, parchalanish parametri.

ЭРГОДИЧНЫЕ СВОЙСТВА И ИНВАРИАНТНЫЕ МЕРЫ ВЕТВЯЩИХСЯ СЛУЧАЙНЫХ ПРОЦЕССОВ ГАЛЬТОНА-ВАТСОНА С НЕКРИТИЧНОЙ ИММИГРАЦИЕЙ

Аннотация. В статье представлен параметр разложения, являющийся важной характеристикой ветвящихся процессов Гальтона-Ватсона с иммиграцией, играющий важную роль в теории случайных процессов и имеющий широкие практические приложения. Получены теоремы для докритического состояния процесса. Также в работе доказана важная теорема, выражающая сходимость инвариантной меры производящей функции и её точный вид в случае докритического процесса. Показано, что числа $\{u_j, j \in S\}$ образуют инвариантное распределение для докритических иммиграционных процессов.

Ключевые слова: ветвящийся процесс, производящая функция, вероятность перехода, случайная величина, инвариантное распределение, параметр разложения.

ERGODIC PROPERTIES AND INVARIANT MEASURES OF GALTON-WATSON BRANCHING RANDOM PROCESSES WITH NON-CRITICAL IMMIGRATION

Abstract. The article presents the expansion parameter, which is an important characteristic of Galton-Watson branching processes with immigration, plays an important role in the theory of random processes and has broad practical applications. Theorems for the subcritical state of the process are obtained. The work also proves an important theorem expressing the convergence of the invariant measure of the generating function and its exact form in the case of a subcritical process. It is shown that the numbers $\{u_j, j \in S\}$ form an invariant distribution for subcritical immigration processes.

Keywords: branching process, generating function, transition probability, random variable, invariant distribution, expansion parameter.

Kirish. Markov tasodifiy jarayonlari sinfida tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar modellari alohida o'rin tutadi. Bu maqolada biz Galton-Vatson immigratsiyali (GVI) tarmoqlanuvchi jarayonlari deb ataladigan tasodifiy jarayonlarni qaraymiz. Zarrachalar populyatsiyasining evolyutsiyasi nazaridan GVI jarayonining formal ta'rifini quyidagicha keltirish qulay. Dastlab tizimda $i \in \mathbb{N}$ ta zarracha mavjud bo'lsin. Bu zarrachalarni *aborigenlar* deb ataymiz. Har bir aborigen birlik vaqt davomiyligida umr ko'radi. Hayotining so'nggida u ξ tasodifiy sondagi avlodni mos ravishda $P(\xi = k) = p_k$ taqsimot qonuni bilan hosil qiladi, bu yerda $k \in \mathbb{N}_0$. Shu bilan bir vaqtda, tizimga har birlik vaqt davomida biror tasodifiy qonunga ega bo'lgan tasodifiy sondagi immigrant zarrachalar kirib kelsin. Ular tizimga kirib, aborigenga aylanishadi.

Kelgusida har bir zarracha boshqa zarachalar kabi bir birlik umr ko'radi va umrining oxirida boshqa zarrachalarga bog'liq bo'lmagan holda $\{p_k\}$ reproduktiv qonunga ko'ra tasodifiy sondagi avlod qoldiradi.

Shunday qilib, vaqtning ixtiyoriy $n \in \mathbb{N}_0$ momentida tizimdagi zarrachalar soni X_n quyidagi rekurrent munosabat orqali formal aniqlanishi mumkin:

$$X_{n+1} = \xi_{n1} + \xi_{n2} + \dots + \xi_{nX_n} + \eta_{n+1}, \quad n \in \mathbb{N}_0, \quad (1)$$

bu yerda $\{\xi_{nk}\}$ – bir xil taqsimlangan o'zaro bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bo'lib, u bevosita n -avlod k -zarrachasining avlodlari sifatida talqin qilinadi, η_m esa m -vaqtda kirib keluvchi ξ_{nk} dan bog'liqsiz bo'lgan bir xil taqsimlangan o'zaro bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar. Bunda $\xi_{nk} \stackrel{d}{=} \xi$ miqdorlar barcha n va k lar uchun umumiy $p_k = P(\xi = k)$ taqsimotga, $\eta_m \stackrel{d}{=} \eta$ miqdorlar esa barcha m lar uchun $P(\eta = j) =: h_j$ taqsimotga ega.

GVI jarayonining yuqoridagi ta'rifi birinchi marta 1965- yilda S.Xitkot [1] tomonidan berilgan (shuningdek [2] ga qarang). Keyinchalik, hozirgi kunga qadar ma'lum bo'lgan bir qator ishlar jarayonning strukturaviy va asimptotik xususiyatlariga bag'ishlangan. Shu munosabat bilan, xususan, A.Barbour va A.Pakes [3], E.Seneta [4]–[7], A.Pakes [8], [9]–[12], S.Pommerenke [13] va boshqa mualliflarning ishlarini sanab o'tish mumkin.

Superkritik jarayonning qaytmaslik xususiyatlari S.Xitkot va A.Pakesning ishlarida isbotlangan; qarang [1], [2], [11]. E.Seneta'ning qayd etilgan ishlarida $\{X_n\}$ Markov zanjirining ergodikligi shartlari, xususan, jarayon subkritik bo'lgan holda yagona invariant o'lchov mavjudligi isbotlangan. Kritik jarayon traektoriyasi ancha qiziqroq. A.Pakesning [8], [14], [9]–[12] tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, agar $a < \infty$ bo'lsa, bunday jarayonning $\mathcal{S}$ holati qaytmas, nol-qaytuvchi yoki ergodik bo'lishi mumkin. O'tish ehtimolligining aniqroq shakldagi asimptotik ko'rinishlari, shuningdek, zanjirning ergodiklik xossalari A.Imomovning [15], [16], [17] ishlarida topildi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Quyidagi ehtimoliy hosil qiluvchi funksiyalarni kiritaylik:

$$h(s) := \sum_{j \in \mathbb{N}_0} h_j s^j \quad \text{va} \quad f(s) := \sum_{j \in \mathbb{N}_0} p_j s^j$$

bunda $s \in [0, 1)$. Tasodifiy jarayon $\{X_n\}$ mumkin bo'lgan holatlari fazosi $\mathcal{S} \subset \mathbb{N}_0$ bilan berilgan bir jinsli Markov zanjirini aniqlaydi. Bu zanjirning i holatdan j holatga n qadamda o'tish ehtimolliklarini har qanday k uchun quyidagicha belgilaymiz:

$$p_{ij}^{(n)} := P(X_{k+n} = j | X_k = i) = P(X_n = j | X_0 = i).$$

Kelgusida biz agar $\{X_n\}$ zanjirning n qadam oldingi holati $i \in \mathcal{S}$ bo'lsa, zanjir holatining shartli ehtimolligini ifodalashda $P_i(*)$ belgilashdan foydalanamiz. Masalan, $p_{ij}^{(n)}$ o'tish ehtimolligi $P_i(X_n = j) = p_{ij}^{(n)}$ bilan belgilanadi. Mos ravishda hosil qiluvchi funktsiyani ushbu

$$\mathcal{P}_n^{(i)}(s) := E_i s^{X_n} = \sum_{j \in \mathcal{S}} p_{ij}^{(n)} s^j$$

ko'rinishda aniqlaymiz, bu yerda E_i belgi P_i ehtimollikka nisbatan matematik kutilmani ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan (1) rekurrent munosabatdan, to'la ehtimolliklar formulasini qo'llab, GVI jarayonining bir jinsliligidan foydalanib, quyidagi tenglikka kelimiz:

$$\mathcal{P}_{n+1}^{(i)}(s) = E_i s^{X_{n+1}} = h(s) \mathcal{P}_n^{(i)}(f(s)). \quad (2)$$

Topilgan (2) rekurrent munosabatni takroriy qo'llasak, biz quyidagi foydalanish uchun qulay formulani olamiz:

$$\mathcal{P}_n^{(i)}(s) = [f_n(s)]^i \prod_{k=0}^{n-1} h(f_k(s)), \quad (3)$$

bu yerda $f_n(s)$ hosil qiluvchi funktsiya $f(s)$ ning n -karrali iteratsiyasi, ya'ni ushbu $f_{n+1}(s) = f_n(f(s)) = f(f_n(s))$ munosabat o'rinni.

$\{X_n\}$ Markov zanjiri m parametrlarning qiymatiga bog'liq ravishda tasniflanadi. Agar $m < 1$, $m = 1$ va $m > 1$ bo'lsa, jarayon mos ravishda subkritik, kritik va superkritik deb ataladi.

Ushbu ishda analitik usullardan hosil qiluvchi funksiyalar usuli qo'llanilgan.

Natijalar va muhokamalar. Mulohazalarimizni dastlab $p_{ij}^{(n)}$ o'tish ehtimolliklarining umumiy asimptotik xususiyatlarini tekshirishdan boshlaymiz. Ushbu $\mathcal{P}_n(s) := \mathcal{P}_n^{(0)}(s)$ belgilashni kiritamiz. Ma'lumki, barcha $s \in [0, 1)$ qiymatlar uchun $n \rightarrow \infty$ da $f_n(s) \rightarrow q$ o'rinli. U holda yuqoridagi (3) formuladan, $\mathcal{P}_n(s) := \mathcal{P}_n^{(0)}(s)$ belgilash yordamida, barcha $s \in [0, 1)$ uchun quyidagi tasdiqni bevosita hosil qilamiz:

$$\frac{\mathcal{P}_n^{(i)}(s)}{\mathcal{P}_n(s)} \longrightarrow q^i, \quad n \rightarrow \infty. \quad (4)$$

Bu munosabat, xususan, $s = 0$ qiymatda o'rinli va (4) munosabatdan bevosita $n \rightarrow \infty$ da nisbatlarning monoton yaqinlashishi haqidagi ushbu $p_{i0}^{(n)} / p_{00}^{(n)} \rightarrow q^i$ tasdiqni hosil qilamiz. Umumiy holda, barcha $i, j \in S$ holatlar uchun mos tasdiqni topishimiz uchun dastlab (3) formuladan quyidagi tengliklarni yozib olamiz:

$$\mathcal{P}_{n+1}^{(i)}(s) = [f_{n+1}(s)]^i \prod_{k=0}^n h(f_k(s)) = \left[\frac{f_n(f(s))}{f_n(s)} \right]^i h(f_n(s)) \mathcal{P}_n^{(i)}(s).$$

Bu tenglikdan ushbu $\mathcal{P}_{n+1}(s) = h(f_n(s)) \mathcal{P}_n(s)$ munosabat kelib chiqadi. Bu tenglikdan, $s = 0$ bo'lganda,

$$p_{00}^{(n+1)} = h(f_n(0)) p_{00}^{(n)} < p_{00}^{(n)}$$

munosabatni olamiz. Ikkinchi tomondan, ravshanki va $p_{01}^{(n)} = \partial \mathcal{P}_n(s) / \partial s|_{s=0}$. U holda oxirgi munosabatni $s = 0$ nuqtada bir marta differensiallab, topamiz:

$$p_{01}^{(n+1)} = p_{01}^{(n)} + a p_{00}^{(n)} m^n \geq p_{01}^{(n)}.$$

Oxirgi topilgan tengsizliklardan quyidagi tengsizlikni hosil qilamiz:

$$\frac{p_{01}^{(n)}}{p_{00}^{(n)}} \leq \frac{p_{01}^{(n+1)}}{p_{00}^{(n+1)}}.$$

Demak, $\{p_{01}^{(n)} / p_{00}^{(n)}\}$ ketma-ketlik monoton o'suvchi. Mulohazalarimizni davom ettira borib, barcha $j \in S$ holatlar uchun $p_{0j}^{(n)} = \partial^j \mathcal{P}_n(s) / \partial s^j|_{s=0}$ ekanligidan, $\{p_{0j}^{(n)} / p_{00}^{(n)}\}$ ketma-ketlikning monoton o'suvchi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bundan tashqari, $p_{00}^{(n)} > 0$ bo'lganligi sababli, ushbu ketma-ketlik yuqoridan chegaralangan. U holda, ketma-ketlik monoton o'sgan holda chekli nomanfiy limit qiymatga yaqinlashadi. Bu limit qiymatni u_j orqali belgilaymiz. Shunday qilib,

$$\frac{p_{0j}^{(n)}}{p_{00}^{(n)}} \uparrow u_j < \infty, \quad n \rightarrow \infty. \quad (5)$$

Yuqoridagi mulohazalar yordamida barcha $i, j \in S$ holatlar uchun [18] ishda quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 1 [18]. Barcha $i, j \in S$ holatlar uchun

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{p_{ij}^{(n)}}{p_{00}^{(n)}} = q^i u_j, \quad (6)$$

bunda $\{u_j\}$ sonlar (5) tasdiqda aniqlangan. Mos hosil qiluvchi funksiya $\mathcal{U}(s) = \sum_{j \in S} u_j s^j$ ushbu

$$\sigma \cdot \mathcal{U}(s) = h(s) \mathcal{U}(f(s)) \quad (7)$$

funksional tenglamani qanoatlantiradi, bu yerda esa $\sigma = h(q)$.

Bu teoremda aniqlangan $\mathcal{U}(s)$ funksiya darajali qator sifatida barcha $s \in [0; r]$, $r < 1$, qiymatlarda uzluksiz va yaqinlashuvchi. Yuqoridagi (7) tenglamada $f(s)$ funksiyaning iteratsiyasini takroriy qo'llab, ushbu

$$\sigma^n \cdot \mathcal{U}(s) = \mathcal{P}_n(s) \mathcal{U}(f_n(s)) \quad (8)$$

tenglikni hosil qilamiz. Bundan esa, $\mathcal{U}(s)$ va $\mathcal{P}_n(s)$ funksiyalarning ta'rifiga ko'ra, quyidagi tengliklarni yozib olamiz:

$$\begin{aligned} \sigma^n \sum_{j \in S} u_j s^j &= \sum_{i \in S} u_i (f_n(s))^i \mathcal{P}_n(s) = \sum_{i \in S} u_i \mathcal{P}_n^{(i)}(s) \\ &= \sum_{i \in S} u_i \sum_{j \in S} p_{ij}^{(n)} s^j = \sum_{j \in S} \left[\sum_{i \in S} u_i p_{ij}^{(n)} \right] s^j \end{aligned}$$

Oxirgi topilgan tenglikda s^j darajalar oldidagi mos koeffitsiyentlarni tenglasak, quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$\sigma^n u_j = \sum_{i \in S} u_i p_{ij}^{(n)}.$$

Bu tenglama $\{u_j, j \in S\}$ sonlarning $\{p_{ij}\}$ o'tish ehtimolliklariga nisbatan invariantlik xossasini ifodalaydi. Xususan, $\sigma u_j = \sum_{i \in S} u_i p_{ij}$ bo'lib, bu tenglikning ehtimoliy ma'nosi quyidagicha. Agar biror $m \in \mathbb{N}$ qadam uchun $P(X_m = j) = u_j$ bo'lsa, Kolmogorov-Chepmen formulasiga ko'ra

$$\begin{aligned} P(X_{m+1} = j) &= \sum_{i \in S} P(X_m = i) P(X_{m+1} = j | X_m = i) \\ &= \sum_{i \in S} u_i p_{ij} = \sigma u_j = \sigma P(X_m = j). \end{aligned}$$

Shunday qilib, $\{X_n, n \in \mathbb{N}\}$ zanjirning biror $j \in S$ holatga tushish ehtimolligi yetarlicha katta $n \in \mathbb{N}$ qadamlar uchun $\sigma = h(q)$ son aniqligida o'zgarmaydi. Bu holda $\{u_j, j \in S\}$ sonlar $\{p_{ij}\}$ o'tish ehtimolliklariga nisbatan σ -invariant o'lchov tashkil etadi deyiladi.

Shu o'rinda Andersonning [19, §5.1] monografiyasida keltirilgan uzluksiz vaqtli $\{X(t), t \in \mathcal{T}\}$ Markov zanjirlarining bir muhim xarakteristikasiga murojaat qilamiz. Bu monografiyada o'tish ehtimolliklari $\{p_{ij}(t)\}$ eksponensial tartibda nolga kamayib boruvchi uzluksiz vaqtli yoyilmaydigan Markov zanjirlari holatlari fazosining "parchalanish darajasi" ushbu $\lambda = -\lim_{t \rightarrow \infty} \ln p_{ij}(t)/t$ son bilan tavsiflangan. Bu son zanjirning parchalanish parametri deb nomlangan; qarang [19, 164-bet]. Uzluksiz va diskret vaqtli zanjirlar orasidagi o'xshashliklar munosabati bilan biz quyidagi ta'rifni kiritamiz. Ushbu

$$\lambda := \lambda_S = -\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\ln p_{ij}^{(n)}}{n} \quad (9)$$

miqdor $\{X_n, n \in \mathbb{N}\}$ zanjirning parchalanish parametri deb ataladi. Uzluksiz vaqtli Markov zanjirlari holatlar fazosining tasnifiga monand [19, 177 bet], $\{X_n\}$ zanjir λ_S -qaytuvchi deyiladi, agarda $\sum_{n \in \mathbb{N}} e^{\lambda n} p_{ii}^{(n)} = \infty$ bo'lsa. Aks holda u λ_S -qaytmas deyiladi. Agar zanjir λ_S -qaytuvchi bo'lib, $\lim_{n \rightarrow \infty} e^{\lambda n} p_{ii}^{(n)} > 0$ bo'lsa, u λ_S -musbat deyiladi, agar $\lim_{n \rightarrow \infty} e^{\lambda n} p_{ii}^{(n)} = 0$ bo'lsa, zanjir λ_S -nol deyiladi.

Biz quyida (9) formula bilan aniqlangan $\{X_n\}$ zanjirning parchalanish parametrini o'rganamiz. Ravshanki, barcha $n \in \mathbb{N}$ qadamlar uchun $p_{00}^{(n)} > 0$ va ta'rifga ko'ra $u_0 = 0$. U holda (8) formuladan ushbu $\sigma^n = \mathcal{P}_n(0) \mathcal{U}(f_n(0))$ tenglikni olamiz. Bundan esa, $f_n(0) \rightarrow q$ yaqinlashishga ko'ra,

$$p_{00}^{(n)} \sim \frac{1}{\mathcal{U}(q)} \sigma^n, \quad n \rightarrow \infty$$

asimptotik munosabatni topamiz. Bu munosabatni (6) tasdiq bilan birgalikda qarasak, barcha $i, j \in S$ holatlar uchun ushbu

$$p_{ij}^{(n)} = \frac{q^i u_j}{\sum_{k \in \mathcal{S}} u_k q^k} \sigma^n (1 + o(1)), \quad n \rightarrow \infty. \quad (10)$$

Ravshanki, (10) formulada σ^n oldidagi koeffitsiyent chekli son va GVI jarayoni superkritik bo'lganda $0 < \sigma < 1$. Demak, $m > 1$ bo'lgan holda barcha $i, j \in \mathcal{S}$ holatlar uchun $\sigma^{-n} p_{ij}^{(n)} \rightarrow \text{const}$, $n \rightarrow \infty$. U holda ushbu

$$\frac{1}{n} \ln p_{ij}^{(n)} = \ln \sigma + \frac{1}{n} \ln \frac{q^i u_j}{\mathcal{U}(q)}$$

tenglik o'rinli bo'ladi. Bu tenglikda $n \rightarrow \infty$ deb limitga o'tsak, superkritik GVI tarmoqlanuvchi jarayoni holatlari fazosining $\lambda = \lambda_{\mathcal{S}}$ parchalanish parametri qiymatini topamiz. Bundan tashqari $\sum_{n \in \mathbb{N}} e^{\lambda n} p_{ii}^{(n)} = \infty$ va $\lim_{n \rightarrow \infty} e^{\lambda n} p_{ii}^{(n)} > 0$ bo'lishini tekshirib ko'rishimiz mumkin. Yuqorida olingan xulosalarni quyidagi teoremda jamlab ifodalaymiz.

Teorema 2. Agar $\{X_n, n \in \mathbb{N}\}$ Markov zanjiri superkritik GVI tarmoqlanuvchi jarayonini ifodalasa, u holda bu zanjir holatlari fazosining parchalanish parametri

$$\lambda_{\mathcal{S}} = |\ln \sigma|. \quad (11)$$

Bundan tashqari, bu zanjir $\lambda_{\mathcal{S}}$ -musbat qaytuvchidir.

Endi $m \neq 1$ bo'lgan hol uchun, ya'ni nokritik GVI tarmoqlanuvchi jarayon uchun $\mathcal{U}(s) = \sum_{j \in \mathcal{S}} u_j s^j$ funksiyaning yaqinlashishi va uning aniq ko'rinishini ifodalovchi quyidagi muhim teoremani isbotlaymiz.

Teorema 3. Nokritik GVI tarmoqlanuvchi jarayonini qaraymiz. Subkritik jarayon uchun $f''(1-) < \infty$ bo'lsin. U holda barcha $s \in [0, q) \cup (q, 1)$ uchun $\mathcal{U}(s)$ limit funksiya yaqinlashuvchi va

$$\mathcal{U}(s) = \prod_{n \in \mathbb{N}_0} [1 + H_n(s) \beta^n],$$

bunda $H_n(s)$ funksiya barcha $n \in \mathbb{N}_0$ nomerlar uchun s o'zgaruvchi bo'yicha chegaralangan hamda

$$H_n(s) \longrightarrow \frac{h'(q)}{\sigma} [\mathcal{K}_q - \mathcal{A}(s)], \quad n \rightarrow \infty,$$

Bunda $\mathcal{A}(s)$ funksiya (15) asimptotik formula bilan aniqlangan va

$$\mathcal{K}_q = \mathcal{A}(0) = \frac{q}{1 - q\gamma}$$

son umumlashgan Kolmogorov doimiysi bo'lib, $\gamma = f''(q)/2\beta(1 - \beta)$, $\beta = f'(q)$.

Isbot. Bizni qiziqtirayotgan $\mathcal{U}(s)$ funksiya (5) tasdiqda berilgan $\{u_j\}$ sonlar to'plami bilan bir qiymatli aniqlanishi tufayli quyidagi hosil qiluvchi funksiyaning qaraymiz:

$$\mathcal{U}_n(s) = \sum_{j \in \mathbb{N}_0} \frac{p_{0j}^{(n)}}{p_{00}^{(n)}} s^j = \frac{1}{\mathcal{P}_n(0)} \mathcal{P}_n(s) = \prod_{k=0}^{n-1} \frac{h(f_k(s))}{h(f_k(0))}, \quad (12)$$

oxirgi tenglikda (3) formuladan foydalandik. O'rta qiymat haqidagi teorema yordamida biz quyidagi tenglikka ega bo'lamiz:

$$\frac{h(f_n(s))}{h(f_n(0))} = 1 + \frac{h'(\theta_n(s))}{h(f_n(0))} (f_n(s) - f_n(0)) \quad (13)$$

bu yerda $f_n(0) < \theta_n(s) < f_n(s)$.

Klassik adabiyotlardan ma'lumki, barcha $m < \infty$ holatlar uchun $0 \leq s < 1$ bo'lganda (qarang. [21])

$$\lim_{n \rightarrow \infty} f_n(s) = q, \quad (14)$$

o'rinli bo'ladi, bu yerda q – avvalgidek, G-V jarayonining so'nish ehtimolligidir. Shu sababdan $n \rightarrow \infty$ bo'lganda $\theta_n(s) \rightarrow q$, bundan esa $h'(\theta_n(s)) \rightarrow h'(q)$ va $h(f_n(0)) \rightarrow \sigma$ bo'lishi kelib chiqadi. Hosil qilingan (13) tenglikdagi $R_n(s)$ funksiya uchun

$$R_n(s) = \mathcal{A}(s)\beta^n(1+o(1)), n \rightarrow \infty, \quad (15)$$

asimptotik formula o'rinli, shu bilan birga bu formulaga ko'ra

$$R_n(0) = P(n < \mathcal{H} < \infty) \sim \mathcal{K}_q \beta^n, \quad n \rightarrow \infty, \quad (16)$$

bu yerda

$$\mathcal{K}_q = \mathcal{A}(0) = \frac{q}{1-q\gamma}$$

va $\gamma = f''(q)/2\beta(1-\beta)$ qarang, [20]. Yuqoridagi xulosalarni (15) va (16) formulalar bilan birgalikda qarasak, $n \rightarrow \infty$ da quyidagi asimptotik munosabatni olamiz:

$$\begin{aligned} \frac{h'(\theta_n(s))}{h(f_n(0))} [f_n(s) - f_n(0)] &= \frac{h'(\theta_n(s))}{h(f_n(0))} [R_n(0) - R_n(s)] \\ &\sim \frac{h'(\theta_n(s))}{h(f_n(0))} [\mathcal{K}_q - \mathcal{A}(s)] \beta^n = H_n(s) \beta^n, \end{aligned} \quad (17)$$

bu yerda

$$H_n(s) = \frac{h'(\theta_n(s))}{h(f_n(0))} [\mathcal{K}_q - \mathcal{A}(s)].$$

Endi, (12), (13) va (17) formulalarni birgalikda qarab, $n \rightarrow \infty$ deb limitga o'tish bilan, teorema tasdig'ini olamiz.

Teorema isbot bo'ldi.

Izoh 1. Isbotlangan teoremada topilgan $\mathcal{U}(s)$ funksiyaning ifodasini $\mathcal{V}(s) := \lim_{n \rightarrow \infty} \mathcal{V}_n(s)$ limit funksiya orqali ham ifodalash mumkin, bu yerda

$$\mathcal{V}_n(s) = \frac{f_n(qs) - f_n(0)}{q - f_n(0)} = E[s^{Z_n} | n < \mathcal{H} < \infty].$$

Buning uchun dastlab quyidagi tenglikni yozib olamiz:

$$\frac{h(f_n(qs))}{h(f_n(0))} = \frac{h(\xi_n(s))}{h(f_n(0))} \mathcal{V}_n(s) R_n(0), \quad (18)$$

bu yerda $f_n(0) < \xi_n(s) < f_n(qs)$ va $n \rightarrow \infty$ da $\xi_n(s) \rightarrow q$. O'z navbatida, adabiyotlardan ma'lumki, $\mathcal{V}(s) = \sum_{j \in \mathbb{N}} \nu_j s^j$ funksiya barcha $s \in [0, 1)$ qiymatlarda yaqinlashuvchi va u

$$\mathcal{A}(s) = \frac{q-s}{1+(q-s)\gamma} \quad (19)$$

funksiya orqali

$$\mathcal{V}(s) = 1 - \frac{\mathcal{A}(qs)}{\mathcal{A}(0)}. \quad (20)$$

formula bilan aniqlangan. Shunday qilib, (12), (16), (18) va (20) formulalarni birgalikda qarasak, quyidagi natijani olamiz:

$$\mathcal{U}(qs) = \prod_{n \in \mathbb{N}_0} [1 + H_n^q(s) \beta^n],$$

bunda $H_n^q(s)$ funksiya barcha $n \in \mathbb{N}_0$ nomerlar uchun s o'zgaruvchi bo'yicha chegaralangan hamda

$$H_n^q(s) \longrightarrow \mathcal{K}_q \frac{h'(q)}{\sigma} \mathcal{V}(s), \quad n \rightarrow \infty.$$

Izoh 2. Yuqoridagi (16) tenglikdan $\mathcal{A}(q) = 0$ ekanligi kelib chiqadi. U holda $\mathcal{V}(s) = 1 - \frac{\mathcal{A}(qs)}{\mathcal{A}(0)}$ (20) munosabatga ko'ra $\mathcal{V}(1) = \sum_{j \in \mathbb{N}} \nu_j = 1$. Demak,

$$H_n(1) \longrightarrow \mathcal{K}_q \frac{h'(q)}{\sigma}, \quad n \rightarrow \infty.$$

Bu yerdan esa $\mathcal{U}(q) < \infty$. Oxirgi tengsizlikdan shunday xulosaga kelamizki, $\{u_j, j \in \mathcal{S}\}$ sonlar subkritik GVI jarayonlari uchun invariant taqsimot tashkil etadi.

Teorema isbot bo'ldi.

Xulosa. Ushbu ishda superkritik Galton-Vatson immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonining parchalanish parametrining qiymati topildi. Subkritik hol uchun $f''(1-) < \infty$ bo'lganda $s \in [0, q) \cup (q, 1)$ uchun $\mathcal{U}(s)$ limit funksiya yaqinlashuvchi va $H_n(s)$ funksiya barcha $n \in \mathbb{N}_0$ nomerlar uchun s o'zgaruvchi bo'yicha chegaralanganligi aniqlandi. Shuningdek, $\{u_j, j \in \mathcal{S}\}$ sonlarning subkritik GVI jarayonlari uchun invariant taqsimot tashkil etishi ko'rsatildi.

ADABIYOTLAR:

1. Heatcote C.R. Corrections and comments on the paper "A branching process allowing immigration". // Journal of Royal Stat. Society, 1966, B 28(1), pp. 213–217.
2. Heatcote C.R. Corrections and comments on the paper "A branching process allowing immigration". // Journal of Royal Stat. Society, 1966, B 28(1), pp. 213–217.
3. Barbour A.D., Peyks A.G. Limit theorems for the simple branching process allowing immigration, II. The case of infinite offspring mean. // Adv. Appl. Prob., 1979, 11, pp. 63–72.
4. Seneta E. On the invariant measures for simple branching process. // Journal Appl. Prob., 1971, 8, pp. 43–51.
5. Seneta E. An explicit-limit theorem for the critical process with immigration. // Journal Roy. Stat. Soc., 1970, B32(1), pp. 149–152.
6. Seneta E. Functional equations and the Diskret vaqtli tarmoqlanuvchi process. // Adv. Appl. Prob., 1969, 1, pp. 1–42.
7. Seneta E. The stationary distribution of a branching process allowing immigration: A remark on the critical case. // Journal Roy. Stat. Soc., 1968, B30(1), pp. 176–179.
8. Peyks A.G. Limit theorems for the simple branching process allowing immigration, I. The case of finite offspring mean. // Adv. Appl. Prob., 1979, 11, pp. 31–62.
9. Peyks A.G. Some limit theorems for Markov chains with applications to branching process. Stud. in Prob. and Stat. Jerusalem Acad. Press, North-Holland, 1974, pp. 21–39.
10. Peyks A.G. Further results on the critical process with immigration. // Journal Aust. Math. Society, 1972, 13, pp. 277–290.
11. Peyks A.G. Branching processes with immigration. // Journal Appl. Prob., 1971, 8(1), pp. 32–42.
12. Peyks A.G. On the critical process with immigration. // Journal Aust. Math. Society, 1971, 12(4), pp. 476–482.
13. Pommerenke C. On the stationary measures of critical branching processes. // Z.Wahrscheinlichkeitsth., 1981, 55, pp. 305–312.
14. Peyks A.G. Some new limit theorems for critical branching process allowing immigration. // Stoch. Processes and Appl., 1976, 4(2), pp. 175–185.
15. Imomov A.A. On Long-Term Behavior of Continuous-Time Markov Branching Processes Allowing Immigration. // Journal. of Siberian Federal Univ.: Mathematics and Physics, 2014, 7(4), pp. 429–440.
16. Imomov A.A. A differential analog of the main lemma of the theory of Markov branching processes and its applications. // Ukrainian Math. Jour., 2005, 57(2), pp. 307–315.
17. Imomov A.A., Tukhtaev E.E. On asymptotic structure of critical Galton-Watson branching processes allowing immigration with infinite variance. // Stochastic Models. 2023, 39(1), pp. 118–140.
18. Imomov A.A. On long-time behaviors of states of Galton-Watson branching processes allowing immigration. // Journal Sib. Fed. Univ.: Math. Phys., 2015, 8(4), pp. 394–405.
19. Anderson W. Continuous-Time Markov Chains: An Applications-Oriented Approach. Springer, New York. (1991).
20. Imomov A.A., Murtazayev M.S. On the Kolmogorov constant explicit form in the theory of discrete-time stochastic branching systems. // Journal of applied probability, 2024, 61(3), pp. 927–941.
21. Харрис Т. Теория ветвящихся случайных процессов. Москва, Мир, 1966.

MAHSULOT SIFATIGA OMILLARNING TA'SIRINI IKKI FAKTORLI EKSPERIMENT
USULI ASOSIDA TADQIQ OLISH

Jumayev Jura,

Buxoro davlat universiteti dotsenti

j.jumayev@buxdu.uz

Muxsinova Nodira Shuxratovna,

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada harorat va inisiator miqdori kabi asosiy omillarning sopolimerlar sifatiga ta'siri samaradorligi to'liq ikki faktorli eksperiment usuli asosida tadqiq qilinadi va usul aniqligi baholanadi. Buning uchun faktorli eksperiment nazariyasiga asoslanib erkin o'zgaruvchilar kodlandi, eksperiment rejasi matritsasi tuzildi, regressiya tenglamalari koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi, tenglamaning adekvatligi tekshirildi va natijalar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: regressiya modellari, omillar, sopolimer ishlab chiqarish, eng kichik kvadratlar usuli, faktorli eksperiment usuli, omillarni kodlash, rejalashtirish matritsasi, dispersiya, standart og'ish.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ФАКТОРОВ НА КАЧЕСТВО ПРОДУКТА С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДА ДВУХФАКТОРНОГО ЭКСПЕРИМЕНТА

Аннотация. В статье произведена оценка эффективности влияния основных факторов, как температура, количество инициатора на производство сополимеров с использованием метода полного факторного эксперимента. Для этого закодированы переменные, была составлена матрица планирования эксперимента, рассчитаны уравнения регрессии, уравнение было проверено на адекватность, и проведён апостериорный анализ.

Ключевые слова: регрессионные модели, факторы, производство сополимеров, метод наименьших квадратов, метод факторного эксперимента, кодирование факторов, матрица планирования, дисперсия, среднееквадратическое отклонение.

STUDY OF THE INFLUENCE OF FACTORS ON PRODUCT QUALITY USING THE
METHOD OF A TWO-FACTOR EXPERIMENT

Abstract. In the article, the effectiveness of the influence of main factors such as temperature and the amount of copolymer on the performance of the copolymer was assessed using the method of a full factorial experiment. To do this, variables were coded, an experimental design matrix was compiled, regression equations were calculated, the equation was checked for adequacy, and post hoc analysis was performed.

Keywords: regression models, factors, production of copolymers, least squares method, factor experiment method, factor coding, planning matrix, variance, standard deviation.

Kirish. Amaliy ilovalarda regressiya modellari ko'pincha omillarning ularga bog'liq bo'lgan miqdorlar bilan bog'langan tenglamalarini topish uchun ishlatiladi. Buning uchun eng kichik kvadratlar usuli, to'liq faktorli eksperiment usuli va boshqalar orqali modellashtirish vositalari mavjud [1-3]. So'nggi paytlarda aniqlik va ishonchlik tufayli tadqiqotchilar ko'pincha to'liq faktorli eksperiment usuliga murojaat qilishadi.

[4] da asosiy omillarning quritishga ta'siri samaradorligi to'liq faktorli eksperiment usuli yordamida baholangan. Buning uchun erkli o'zgaruvchilar kodlangan, eksperimental reja matritsasi tuzilgan, regressiya tenglamalari hisoblab chiqilgan, tenglamaning adekvatligi tekshirilgan va aposterior tahlillari o'tkazilgan.

[5] da toshni maydalash jarayoni to'liq faktorli eksperiment yordamida matematik modellashtirilgan. Olingan tenglamadan foydalanib, jarayonni optimallashtirish uchun zarur bo'lgan har bir o'rganilayotgan omilning yakuniy natijaga ta'sir qilish darajasi aniqlangan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, omilli tahlildan foydalanish texnologik jarayonlarni modellashtirish uchun maqbul natijalar beradi.

Metodologiya. Ba'zi texnologik omillarning uglerod moyi sopolimerining [6] ishlashiga ta'sirini o'rganish uchun eksperimentlar ikki faktorli eksperiment rejasiga muvofiq amalga oshirildi va har bir eksperiment uch marta takrorlandi (1-jadvalga qarang). Sopolimerning ishlashiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar tanlandi:

- z1 – harorat $^{\circ}\text{C}$;
z2 – inisiator miqdori % ;

Faktorlarni kodlash.

Olingan eksperimental ma'lumotlarga asosanib, uch marta o'tkazilgan faktorli eksperiment uchun dastlabki rejalashtirish matritsasini tuzamiz. Har bir eksperiment uchun o'rtacha namuna natijalarini hisoblaymiz [7-10]:

$$\bar{y}_i = \frac{(y_{1i} + y_{2i} + y_{3i})}{3}$$

Biz barcha o'zaro ta'sirlarni va o'rtacha hisoblangan qiymatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish matritsasini quramiz.

1-jadval.

№	Boshlang'ich qiymatlar		Kodlangan qiymatlar		Y tajriba natijalari			Y O'rtacha
	$^{\circ}\text{C}$	%	X ₁	X ₂	Y1	Y2	Y3	
1	60	0,3	-1	-1	45,7	46,2	47,0	46,3
2	80	0,7	+1	+1	55,8	55,2	57,3	56,1
3	80	0,3	+1	-1	46,4	47,3	47,9	47,2
4	60	0,7	-1	+1	50,6	52,1	52,7	51,8

Nazariyaga asosanib, faktorlarni kodlash quyidagicha bo'ladi (2-jadval):

2-jadval.

Faktorlar	Yuqori daraja +i	Pastki daraja -i	Markaz Z_i^0	Variatsiya oralig'i λ_i	Kodlangan o'zgaruvchining natural o'zgaruvchiga bog'liqligi
z ₁	80	60	70	10	$X_1 = \frac{Z_1 - 70}{10};$
z ₂	0,7	0,3	0,5	0,2	$X_2 = \frac{Z_2 - 0,5}{0,2};$

Model koeffitsiyentlarini hisoblash. Quyidagi ifoda yordamida empirik munosabatni qidiramiz:

$$y = b_0 + b_1X_1 + b_2X_2 \quad (1)$$

Model koeffitsiyentlari [4] formulasi yordamida hisoblanadi.

$$b_0 = \frac{1}{N} \cdot \sum_{k=1}^N y_k \quad b_1 = \frac{\sum_{j=1}^N x_{1j}y_j}{\sum_{j=1}^N x_{1j}^2};$$

$$b_2 = \frac{\sum_{j=1}^N x_{2j}y_j}{\sum_{j=1}^N x_{2j}^2}; \quad b_{12} = \frac{\sum_{j=1}^N x_{1j}x_{2j}y_j}{\sum_{j=1}^N x_{1j}^2x_{2j}^2};$$

Ushbu formulalarga ma'lumotlarni kiritish orqali koeffitsiyentlarni hisoblaymiz:

$$b_0 = \frac{1}{4}(46,3 + 56,1 + 47,2 + 51,8) = 50,35$$

$$b_1 = \frac{1}{4}(-46,3 + 56,1 + 47,2 - 51,8) = 1,3$$

$$b_2 = \frac{1}{4}(-46,3 + 56,1 - 47,2 + 51,8) = 3,6$$

Ushbu kattaliklarni (1) ga qo'yganda bu tenglama quyidagicha ko'rinishni oladi:

$$y = 50,35 + 1,3 \cdot X_1 + 3,6 \cdot X_2 \quad (2)$$

Model koeffitsiyentlarining ahamiyatligini tekshirish. Buning uchun biz birlik o'lchov dispersiyasini, natijaviy funksiyasi o'rtacha qiymatining dispersiyasini va ularga mos keladigan standart og'ishni quyidagi formula yordamida hisoblaymiz [12-15]:

$$S_{\{y\}}^2 = \frac{1}{n(m-1)} \sum_{j=1}^n \sum_{i=1}^m (y_{ji} - \bar{y}_j)^2 = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n \left(\frac{1}{m-1} \sum_{i=1}^m (y_{ji} - \bar{y}_j)^2 \right) = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n S_j^2$$

Qulaylik uchun quyidagilarni hisoblab olamiz:

3-jadval.

j	y_1	y_2	y_3	$\bar{y}_j$	$(y_{j1} - \bar{y}_j)^2$	$(y_{j2} - \bar{y}_j)^2$	$(y_{j3} - \bar{y}_j)^2$	S_j^2
1	45,7	46,2	47,0	46,3	0,6	0,1	0,7	1,4
2	55,8	55,2	57,3	56,1	0,3	0,9	1,2	2,4
3	46,4	47,3	47,9	47,2	0,8	0,1	0,7	1,6
4	50,6	52,1	52,7	51,8	1,2	0,3	0,9	2,4

$$S_y^2 = \frac{1}{N} \sum_{k=1}^N S_k^2 = \frac{1}{4}(0,43 + 1,17 + 0,57 + 1,17) = 0,835$$

$$S_{\bar{y}}^2 = \frac{S_y^2}{3} = \frac{0,835}{3} = 0,278 \quad S_{\bar{y}} = \sqrt{0,278} = 0,528$$

Ushbu jadvaldan oxirgi ustun elementlarini qo'shgan holda topamiz:

$$\sum_{j=1}^n S_j^2 = 1,4 + 2,4 + 1,6 + 2,4 = 7,8$$

Bundan $S_{\{y\}}^2$ ni hisoblab olamiz:

$$S_{\{y\}}^2 = \frac{1}{4} \sum_{j=1}^8 S_j^2 = \frac{1}{4} \cdot 7,8 = 1,95$$

Ushbudan foydalanib koeffitsiyentlarning o'rtacha kvadratik o'gishlarini hisoblaymiz:

$$S_{KO\Phi} = \sqrt{\frac{S_{\{y\}}^2}{n \cdot m}} = \sqrt{\frac{1,95}{4 \cdot 2}} = 0,12$$

Styudent jadvaliga muvofiq $n(m-1)=4 \cdot 1=4$ va $\alpha=0,05$ ga muvofiq $t_{kp}=2,78$. Bundan kelib chiqadiki $t_{kp} \cdot S_{KO\Phi} = 2,78 \cdot 0,12 = 0,37858 \approx 0,34$

Topilgan qiymatni regressiya tenglamasining koeffitsiyentlari bilan solishtiramiz. Ko'rinib turibdiki, (2) tenglamadagi barcha koeffitsiyentlar 0,34 dan katta. Demak, (2) tenglamaning barcha koeffitsiyentlari ishonchli va yakuniy tenglama oldingidek qoladi:

$$y = 50,35 + 1,3 \cdot X_1 + 3,6 \cdot X_2$$

Endi ushbu tenglamani adekvatligini Fisher mezonini orqali tekshiramiz. Oldingi hisob-kitoblar orqali topilgan qiymatlar asosida Fisher kriteriyasi F_{krit} ni hisoblash uchun S_{qol}^2 ni aniqlash kerak.

Buning uchun topilgan (2) regressiya tenglamasidan foydalanib x_i parametrlar o'rniga +1 yoki -1 qiymatlarni qo'yib funksiya qiymatini topib olamiz:

$$y_1 = 50,35 + 1,3 \cdot (-1) + 3,6 \cdot (-1) = 45,45$$

$$y_2 = 50,35 + 1,3 \cdot (1) + 3,6 \cdot (1) = 55,25$$

$$y_3 = 50,35 + 1,3 \cdot (1) + 3,6 \cdot (-1) = 48,05$$

$$y_4 = 50,35 + 1,3 \cdot (-1) + 3,6 \cdot (1) = 52,65$$

Qoldiq dispersiya S_{oct}^2 ni quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$S_{\text{qol}}^2 = \frac{1}{n-2} \sum_{j=1}^N (\tilde{y}_j - \bar{y}_j)^2 = 1,445$$

Fisher mezonini bo'yicha F_{krit} ni quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$F_{\text{krit}} = \frac{S_{\text{qol}}^2}{S_{\{y\}}^2} = \frac{1,445}{0,8350} = 1,73$$

Ushbu topilgan Fisher mezonini jadval qiymati tegishli $\alpha=0,05$ ahamiyatlilik darajasi va $k_1=n-r=8-7=1$ va $k_2=n(m-1)=8 \cdot 2=16$ erkinlik darajalariga muvofiq Fisher taqsimotining kritik nuqtalari jadvallaridan topiladi [16-17]:

$$F_{\text{табл.}} = 4,49$$

$F_{\text{расч}} = 1,83 < F_{\text{табл.}} = 4,49$, bo'lgani uchun (2) regressiya tenglamasi adekvat ekanini topamiz.

Ushbu olingan (2) regressiya tenglamasini tahlil qilamiz. Tenglamadagi ko'rinadiki, har ikki faktor ham natijaga ijobiy ta'sir etadi, ya'ni faktorlar o'ssa, natija oshadi va aksincha.

Endi topilgan (2) tenglamani natural o'zgaruvchilarda yozamiz, buning uchun x_i kodlangan o'zgaruvchilar o'rniga ularning z_i orqali yozilgan ifodalarini (2) tenglamaga qo'yamiz:


$$y = 50,35 + 1,3 \cdot \frac{z_1 - 70}{10} + 3,6 \cdot \frac{z_2 - 0,5}{0,2}$$

Shakl almashtirishlar bajarib topamiz:

$$y = 32,25 + 0,13z_1 + 18z_2 \quad (3)$$

Ko'rinadiki, natural o'zgaruvchilarda yozilgan regressiya tenglamasi ham kodlangan o'zgaruvchilarda yozilgan (2) tenglamaga o'xshash.

Olingan (3) tenglama xossalari 1-chizmadan ko'rib olish mumkin. [18].



1-chizma. $y = 32,25 + 0,13z_1 + 18z_2$ funksiya grafigi.

Xulosa. Tajriba natijalaridan foydalanib to'la faktorli eksperiment usuli yordamida topilgan regressiya tenglamasi faktorlarning o'zgarish oralig'ida yetarlicha aniqlikda natija bera olishi ko'rsatildi. Bunday topilgan regressiya tenglamalari har bir faktorning chiqish ko'rsatkichiga ta'sirini o'rganish va shuning asosida jarayon optimizatsiyasiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Григорьев Ю. Д. Методы оптимального планирования эксперимента. Линейные модели. М. Лань, 2015. 320 с.

2. Ермаков С. М., Бродский В. З., Жигляевский А. А. и др. Математическая теория планирования эксперимента. М.: ФИЗМАТЛИТ, 1983. 392 с.
3. Красовский Г. И., Филаретов Г. Ф. Планирование эксперимента. Мн.: Изд-во БГУ, 1982. 302 с.
4. Sharipov N.Z., Gafurov K.X., Jumaev J. Mahalliy soya urug'ini po'stlog'idan ajratish jarayonini tadqiq qilish//Фан ва технологиялар тараққиёти. // Илмий-техникавий журнал. № 4, 2022. 47-52 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8538
5. Kholikov AA., Jumaev J. Planning and conducting experiments of the drying process using heat pipes // European Scholar Journal (ESJ), Vol.2, No.3, March 2021, p.36-41. <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/312/246>
6. Тимофеев В.С. Принципы технологии основного органического и нефтехимического синтеза// учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 2003. – 536 с.
7. Жураев Х., Гафуров К., Ж. Жумаев, Мирзаева Ш. Математическое моделирование процесса сверхкритической экстракции биологически активных веществ из лакричного корня//Universum. Технические науки. Выпуск 10(79). Октябрь 2020. <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/10822>
8. Джумаев Х.Ф., Гафуров К.Х., Мухаммадиев Б.Т., Жумаев Ж., Мирзаева Ш.У.. The influence of technological parameters on the process of CO₂-extraction of biologically active substances from licorice root. // The American journal of applied science, Volume 2, 2020. P. 273-286. <https://usajournalshub.com/index.php/tajas/article/view/1067>
9. Mirzaeva Sh.U.. Extraction of Glycyrrhizic Acid from Licorice Root using CO₂. // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Volume 6, Issue 4, April 2019, India, - P. 8939-8946.
10. Гафуров К.Х., Мухаммадиев Б.Т., Мирзаева Ш.У.. Сверхкритическая [СК] CO₂ экстракция глицирризиновой кислоты из местных лакричных корней. // Бултеровские сообщения №1, том 49. 2017, Татарстан, С. 108-114.
11. Гафуров К.Х., Мухаммадиев Б.Т., Рузиева К.Э., Ахмедов В.Н., Мирзаева Ш.У. Моделирование разных режимов экстракции системой растворителей этанол+CO₂. // Ученый XXI века 1-3, 2017, С. 44-47.
12. Жумаев Ж., Опокина Н.А. Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD. Учебное пособие. Казань: КФУ, 2021. – 228 с. <https://dspace.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163784>
13. Shamsiddinova M.U. Regression tahlilda nisbiy xatolikning o'ziga xos tomonlari// Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2-son /2024 17-24 betlar.
14. Shamsiddinova M.U. Bir faktorli chiziqli regressiyaning chiziqsiz hollarida eng kichik kvadratlar usulini qo'llash// Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 1-son /2024 37-41 betlar.
15. Narziev M., Jumaev J. Simulation of mixing and crushing of liquid at the initial site by a high-temperature gas flow// E3S Web of Conferences 390, 05023 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339005023>
16. Гафуров К.Х., Сафаров А.Ф., Мирзаева Ш.У. Энергосбережение в установке для экстракции сверхкритическим углекислым газом // «Бухоро давлат университети илмий ахбороти» илмий-техникавий журналы, №1, 2016. С.21-26.
17. Gafurov Kh., Muhammadiev B., Mirzaeva Sh., Kuldosheva F. Obtaining extracts from plant raw materials using carbon dioxide // Journal "Food science and technology-Ukraine" - 2020. Volume 14, Issue 1. P.47-53. ISSN: 2073-8684.
18. Jumayev J. Transport masalasini MathCAD tizimida yechish// BuxDU ilmiy axboroti, 2022, № 6, 27-31 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8701

ФОРМУЛА КАРЛЕМАНА ДЛЯ ОБОБЩЁННОЙ СИСТЕМЫ КОШИ-РИМАНА В МНОГОМЕРНОЙ БЕСКОНЕЧНОЙ ОБЛАСТИ

Эрмаматова Фотима Эрмаматовна,
докторант 3-го курса кафедры «Дифференциальные уравнения»
Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова
fotimaermamatova817@gmail.com

Аннотация. В работе рассматривается задача восстановления решения обобщённой системы Коши-Римана в многомерной пространственной бесконечной области по их значениям на куске границы этой области, т.е. задача Коши. Строится приближённое решение этой задачи, основанное на методе матрицы Карлемана-Ярмухамедова.

Ключевые слова: обобщённая система Коши-Римана, задача Коши, некорректные задачи, регулярное решение, приближённое решение, матрица Карлемана-Ярмухамедова.

CARLEMAN'S FORMULA FOR THE GENERALIZED CAUCHY-RIEMANN SYSTEM IN A MULTIDIMENSIONAL IN UNBOUNDED DOMAIN

Abstract. The paper considers the problem of reconstructing the solution of a generalized Cauchy-Riemann system in a multidimensional unbounded domain from their values on a piece of the boundary of this domain, i.e. the Cauchy problem. An approximate solution to this problem is constructed, based on the Carleman-Yarmukhamedov matrix method.

Key words: Generalized Cauchy-Riemann system, Cauchy problem, ill-posed problems, regular solution, approximate solution, Carleman-Yarmukhamedov matrix.

KO'P O'LCHOVLI CHEKSIZ SOHADA UMUMLASHGAN KOSHI-RIMAN SISTEMASI UCHUN KARLEMAN FORMULASI

Annotatsiya. Ko'p o'lchovli cheksiz sohada umumlashgan Koshi-Riman sistemasi yechimining soha chegarasini bir qismida berilgan qiymati bo'yicha tiklash, ya'ni Koshi masalasi qaralgan. Karleman-Yarmukhamedov matritsasi metodiga asoslangan taqribiy yechimi keltirilgan.

Kalit so'zlar: umumlashgan Koshi-Riman sistemasi, Koshi masalasi, nokorrekt masala, regular yechim, taqribiy yechim, Carleman-Yarmukhamedov matritsasi.

Введение. Рассмотрим систему уравнений [1], [2]:

$$\sum_{k=1}^n \left(\frac{\partial F_k}{\partial x_k} + a_k F_k \right) = 0, \quad \frac{\partial F_j}{\partial x_k} - \frac{\partial F_k}{\partial x_j} - a_k F_j + a_j F_k = 0 \quad (k, j = 1, 2, \dots, n), \quad (1)$$

которая является n -мерным аналогом обобщённой системы Коши-Римана, где $\vec{F}(x) = (F_1(x), F_2(x), \dots, F_n(x))$ - искомая вектор-функция, $\vec{A} = (a_1, a_2, \dots, a_n)$ - заданный постоянный вектор.

Введём следующие обозначения:

$$\begin{aligned} L_{kj}(X_1, X_2, \dots, X_n; \vec{A}) \vec{F} &= L_{jk}(X_1, X_2, \dots, X_n; \vec{A}) \vec{F} = \\ &= (X_k - a_k) F_j - (X_j - a_j) F_k + \delta_{kj} (X_l + a_l) F_l, \quad (k \leq j) \\ L_k(X; \vec{A}) \vec{F} &= (L_{k1}, \dots, L_{kn}) \vec{F} \quad (k, l, j = 1, 2, \dots, n), \end{aligned} \quad (2)$$

где δ_{kj} - символ Кронекера. Тогда систему (1) можно записать в виде:

$$L_k \left(\frac{\partial}{\partial x}; \vec{A} \right) \vec{F} = 0, \quad (k = 1, \dots, n), \quad (3)$$

где

$$\frac{\partial}{\partial x} = \left(\frac{\partial}{\partial x_1}, \dots, \frac{\partial}{\partial x_n} \right).$$

Обсуждение и результаты. Для каждого векторного оператора L_k определяем сопряженный векторный оператор L_k^* равенством:

Дальнейшие расчёты показали, что для D^+ дефекта только в значениях $\varepsilon_D^+ - \varepsilon_V \approx 1,28$ эВ, $N_D^+ = 6 \cdot 10^{15} \text{ см}^{-3}$, $b = 10 \text{ эВ}^{-1}$ спектр коэффициента поглощения в дефектах для переходов электрона от валентной зоны в дефект, соответствовало экспериментальным результатам (рисунок 3). Это означает, что в аморфном гидрогенизированном кремнии $\alpha\text{-Si:H}$ (рисунок 2) значения спектров поглощения с дефектами определяется в основном оптическими переходами электронов от валентной зоны в D^+ дефект. Для этих переходов электрона, спектры поглощения тоже исследовано по формулам (6) и (7).

Аналитические парциальные спектры поглощения в дефектах, полученные по этим формулам, дали одно и то же решение. Поэтому для определения парциального спектра поглощения в дефектах можно использовать формулы (6) и (7).

Так как нужно определить распределение плотности электронных состояний в D^+ дефекта, используем формулу (7).

В работе [11] для производной по одной переменной от интеграла двух переменных дана следующая формула:

$$\frac{d}{dy} \int_{\alpha(y)}^{\beta(y)} f(x, y) dx = \int_{\alpha(y)}^{\beta(y)} \frac{\partial f(x, y)}{\partial y} dx + \frac{\partial \beta(y)}{\partial y} f(\beta(y), y) - \frac{\partial \alpha(y)}{\partial y} f(\alpha(y), y). \quad (10)$$

Подставляя формулу (7) в это выражение, получаем для распределений энергетических состояний D^+ дефекта:




Рисунок 2. Экспериментальный спектр $\alpha\text{-Si:H}$.

Где участки 1 –межзонного, 2 – экспоненциального, 3 – дефектного поглощения. Рассчитанные спектры оптического поглощения $\alpha\text{-Si:H}$ а – межзонного и б –экспоненциального поглощения, с – дефектного поглощения

$$\begin{aligned}
 \frac{\partial \alpha}{\partial \hbar \omega} &= A \frac{\partial}{\partial \hbar \omega} \int_{\varepsilon_{D1}}^{\varepsilon_V + \hbar \omega} g_V(\varepsilon - \hbar \omega) g_D(\varepsilon) \frac{d\varepsilon}{\hbar \omega} = \\
 &= A \int_{\varepsilon_{D1}}^{\varepsilon_V + \hbar \omega} g_D(\varepsilon) \frac{\partial}{\partial \hbar \omega} \frac{g_V(\varepsilon - \hbar \omega)}{\hbar \omega} d\varepsilon + g_D(\varepsilon_V + \hbar \omega) g_V(\varepsilon_V) = \\
 &= A \int_{\varepsilon_{D1}}^{\varepsilon_V + \hbar \omega} g_D(\varepsilon) \frac{\hbar \omega \frac{\partial}{\partial \hbar \omega} g_V(\varepsilon - \hbar \omega) - g_V(\varepsilon - \hbar \omega)}{\hbar \omega^2} d\varepsilon + g_D(\varepsilon_V + \hbar \omega) g_V(\varepsilon_V) = \\
 &= A \int_{\varepsilon_{D1}}^{\varepsilon_V + \hbar \omega} g_D(\varepsilon) \frac{\partial}{\partial \hbar \omega} g_V(\varepsilon - \hbar \omega) \frac{d\varepsilon}{\hbar \omega} - \frac{\alpha}{\hbar \omega} + g_D(\varepsilon_V + \hbar \omega) g_V(\varepsilon_V)
 \end{aligned} \quad (11)$$

В эту формулу подставляем распределения электронных состояний в валентной зоне и D^+ дефекте, используя модель в виде (3)-(5):

$$\begin{aligned}
 \frac{\partial \alpha}{\partial \hbar \omega} &= A \int_{\varepsilon_{D1}}^{\varepsilon_V + \hbar \omega} \frac{g(\varepsilon_D)}{\text{ch}(b(\varepsilon - \varepsilon_D))} \frac{\partial}{\partial \hbar \omega} (N(\varepsilon_V) \left(\frac{\varepsilon_C - \varepsilon - \hbar \omega}{E_g \hbar \omega} \right) d\varepsilon - \frac{\alpha}{\hbar \omega} + \frac{A}{\hbar \omega} N(\varepsilon_V) \left(\frac{\varepsilon_C - \varepsilon_V}{E_g} \right) + \\
 &+ \frac{g(\varepsilon_D)}{\text{ch}(b(\varepsilon_V + \hbar \omega - \varepsilon_D))} = \frac{Ag(\varepsilon_D)N(\varepsilon_V)}{E_g \hbar \omega} \int_{\varepsilon_{D1}}^{\varepsilon_V + \hbar \omega} \frac{d\varepsilon}{\text{ch}(b(\varepsilon - \varepsilon_D))} - \frac{\alpha}{\hbar \omega} + \frac{Ag(\varepsilon_D)N(\varepsilon_V)}{\hbar \omega} \frac{1}{\text{ch}(b(\varepsilon_V + \hbar \omega - \varepsilon_D))}
 \end{aligned} \quad (12)$$

$$\begin{aligned}
 \frac{\partial \alpha}{\partial \hbar \omega} &= \frac{2Bg(\varepsilon_D)}{bN(\varepsilon_C)\hbar \omega E_g} [\text{arctg} \exp(b(\varepsilon_V - \varepsilon_D + \hbar \omega)) - \text{arctg} \exp(b(\varepsilon_{D1} - \varepsilon_D))] - \\
 &- \frac{\alpha}{\hbar \omega} + \frac{B}{N(\varepsilon_C)\hbar \omega} g_D(\varepsilon_V + \hbar \omega - \varepsilon_D)
 \end{aligned} \quad (13)$$

Способ определения $g(\varepsilon_D)$ также представлен в работе [9].

Теперь будем определять энергетические положения этих состояний.

$$g_D(\varepsilon - \varepsilon_D) = g_D(\varepsilon_V - \varepsilon_D + \hbar \omega), \quad \varepsilon = \varepsilon_V + \hbar \omega. \quad (14)$$

Из этого следует, что энергетическое положение D^+ дефекта расположено выше $\hbar \omega$ от верхней границы валентной зоны. Из формулы (14) получаем:

$$g_D(\varepsilon) = \frac{g(\varepsilon_D)}{\text{ch}(b(\varepsilon - \varepsilon_D))} = \frac{g(\varepsilon_D)}{\text{ch}(b(\varepsilon_V + \hbar \omega - \varepsilon_D))}. \quad (15)$$

Из формулы (13) для $g_D(\varepsilon)$ получаем:

$$\begin{aligned}
 g_D(\varepsilon) &= \frac{N(\varepsilon_C)\hbar \omega}{B} \left(\frac{\partial \alpha}{\partial \hbar \omega} + \frac{\alpha}{\hbar \omega} - \frac{2Bg(\varepsilon_D)}{bN(\varepsilon_C)\hbar \omega E_g} \times \right. \\
 &\times [\text{arctg} \exp(b(\varepsilon_V - \varepsilon_D + \hbar \omega)) - \text{arctg} \exp(b(\varepsilon_{D1} - \varepsilon_D))] \Big)
 \end{aligned} \quad (16)$$

Усредняя значение коэффициента дефектного поглощения и поглощённых фотонов, эту формулу запишем следующим образом:

$$\begin{aligned}
 g_{Di}(\varepsilon) &= \frac{N(\varepsilon_C)(\hbar \omega_{i+1} + \hbar \omega_i)}{2B} \left(\frac{\alpha_{i+1} - \alpha_i}{\hbar \omega_{i+1} - \hbar \omega_i} + \frac{\alpha_{i+1} + \alpha_i}{\hbar \omega_{i+1} + \hbar \omega_i} - \frac{4Bg(\varepsilon_D)}{bN(\varepsilon_C)(\hbar \omega_{i+1} + \hbar \omega_i)E_g} \times \right. \\
 &\times [\text{arctg} \exp(b(\varepsilon_V - \varepsilon_D + (\hbar \omega_{i+1} + \hbar \omega_i)/2)) - \text{arctg} \exp(b(\varepsilon_{D1} - \varepsilon_D))] \Big)
 \end{aligned} \quad (17)$$

А формулу (15) напомним следующим образом:

$$g_{Di}(\varepsilon) = \frac{g(\varepsilon_D)}{\text{ch}(b(\varepsilon_i - \varepsilon_D))} = \frac{g(\varepsilon_D)}{\text{ch}(b(\varepsilon_V + \frac{\hbar \omega_{i+1} + \hbar \omega_i}{2} - \varepsilon_D))}, \quad (18)$$

где $\alpha_i, \alpha_{i+1}, \hbar \omega_i, \hbar \omega_{i+1}$ - значения коэффициента поглощения в дефектах и энергии поглощённых фотонов, рассчитанные из формулы (7), полученных для оптических переходов электрона от валентной зоны на D^+ дефект (рисунок 3).

В формулы (17) и (18) подставим значения, полученные из частичного спектра, показанные на рисунке 3.

Рассчитанные плотности состояний электронов в дефекте D^+ показаны на рисунке 4.




Рисунок 3. Рассчитанные спектры 1 – экспоненциального поглощения и 2 – дефектного поглощения соответствующие переходам электрона от валентной зоны в дефект




Рисунок 4. Рассчитанные распределения плотности электронных состояний D^+ дефекта 1 - по формуле (17), 2 - по формуле (18)

ЛИТЕРАТУРА:

1. М.С. Аблова, Г.С. Куликов, С.К. Першеев. Метастабильные состояния нелегированного аморфного гидрогенизированного, создаваемые γ – облучением. ФТП, 2002, том 36, вып. 8, с.1001-1003.
2. M. Gunes and Ch. R. Wronski. Differences in densities of charged defect states and kinetics of Staebler – Wronski effect in undoped (nontrinsic) hydrogenated amorphous silicon thin films. AIP, V 81, N 8, pp. 3526-3536.
3. В. И. Фистуль. Введение в физику полупроводников. М.: Высш. шк., 1984. 352 с.
4. Зайнобидинов С., Икрамов Р.Г., Жалалов Р.М. // Журнал прикладной спектроскопии. 2011. Т. 78. № 2. с. 243.
5. Davis E.A., Mott N.F. Electronic Processes in Non Crystalline Materials. // Clarendon Press, Oxford, 1979.
6. G. D. Cody. Hydrogenated Amorphous Silicon. Optical Properties, 1984.V. 21
7. S. K. O'Leary, "On the relationship between the distribution of electronic states and the optical absorption spectrum in amorphous semiconductors," Solid State Commun., 1999.V.109. P. 589–594.
8. Икрамов Р.Г. // Естественные и технические науки. 2007.
9. R.G.Ikramov, Kh.A. Muminov, M.A. Nuriddinova, B.Q. Sultonov, O.T. Kholmirezayev. Dangerous bonds individual of hydrogenated amorphous silicon and defect absorption spectra. East European Journal of Physics. 4. 244-250 (2023)
- 10.F. Orapunt, S.K. O' Leary. A quantitative characterization of the optical absorption spectrum associated with hydrogenated amorphous silicon. Mater Electron. (2009), V 20, pp. 1033-1038.
11. Бронштейн И.Н., Семендяев К.А. Справочник по математике для инженеров и учащихся втузов. М. Наука, Гл. Ред. Физ. Мат. Лит. 1986.С. 544.

CHARM SANOATI CHIQINDISI-MEZDRANI, TERINI QAYTA ISHLASH JARAYONLARIDA QO'LLASHNING NAZARIY TADQIQI

Shamsiyeva Maxbuba Badriyevna,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti

Abduraxmonova Pokiza Elmurod qizi,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tayanch doktoranti

pokiza.abduraxmonova.95@mail.ru

Annotatsiya. Ma'lumki, charm va mo'yna sanoatida turli xil va tarkibdagi ishlab chiqarish chiqindilari hosil bo'ladi. Bu esa sanoat chiqindilaridan qayta foydalanishni kengaytirish zaruratini tug'diradi. Maqolada charm sanoati chiqindisi hisoblangan mezdralardan qayta foydalanishni kengaytirish imkoniyatlari o'rganilgan. Ajratilgan mezdra yog'ining tarkibi aniqlanib, uning asosida sirt faol modda olishning nazariy tadqiqi keltirilgan. Nazariy tadqiqotlar asosida olingan sirt faol moddalar anion aktiv sirt faol moddalar turkumiga kirib, toza va sifatli bilan ham ahamiyatli ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: charm va mo'yna sanoati, mezdra chiqindisi, ho'llash jarayoni, sirt faol modda, anion aktiv, yog' kislotalari, ishqor, kislota, yog'lash jarayoni.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЗДРОВЫХ ОТХОДОВ КОЖЕВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОЦЕССАХ ОБРАБОТКИ КОЖИ

Аннотация. Известно, что в кожевенно-меховой промышленности образуются отходы производства различного вида и состава. Это создаёт необходимость расширения повторного использования промышленных отходов. В статье исследуются возможности расширения повторного использования мездры, которая является отходом кожевенного производства. Определён состав выделенного мездрового жира и на его основе проведено теоретическое исследование получения ПАВ. На основании теоретических исследований поверхностно-активные вещества включены в категорию анионно-активных поверхностно-активных веществ и имеют важное значение по своей чистоте и качеству.

Ключевые слова: кожевенно-меховая промышленность, отходы мездры, процесс отмока, ПАВ, анионное активное вещество, жирные кислоты, щелочь, кислота, процесс жирования.

THEORETICAL RESEARCH OF USING FLESH WASTE OF THE LEATHER INDUSTRY WHICH TAKES IN LEATHER MAKING PROCESSES

Abstract. It is known that the leather and fur industry generates production waste of various types and compositions. This creates the need to expand the reuse of industrial waste. The article examines the possibilities of expanding the reuse of flesh fat, which is a waste from tanning production. The composition of the isolated flesh fat was determined and a theoretical study of obtaining surfactants was conducted on its basis. Based on theoretical studies, surfactants are included in the category of anionic surfactants and are important in their cleanliness and quality.

Keywords: leather and fur industry, flesh waste, soaking process, surfactant, anionic active substance, fatty acids, alkali, acid, fatliquoring process.

Kirish. Terini qayta ishlashda organik chiqindilarning aksariyati to'liq foydalanishga o'tgani yo'q, shuning uchun hali-hanuz axlatxonalarga tashlanadi va bu esa, oqsilning chirishi hisobiga atrof-muhitni sezilari darajada ifloslanishiga olib keladi. Shu kabi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida charm sanoati chiqindilaridan qayta foydalanishga chuqur ahamiyat qaratmoq maqsadga muvofiqdir.


Charm ishlab chiqarishning tayyorlov jarayonlaridan biri hisoblangan mezdralash jarayonida ishlov berilayotgan xom ashyo turi hamda qo'llanilayotgan texnologiyaga bog'liq holda 30-50 % mezdra hosil bo'ladi [1,2].

Tadqiqot ishlarida oshlanmagan chiqindilardan medisina va kosmetikada foydalanish uchun materiallar olingan.

Yaponiyada spilkadan mustahkam kollagen membranalarini olinib, undan oziq-ovqat mahsulotlari uchun qadoqlovchi sifatida foydalangan [3]. Belarusiyada charm sanoati chiqindilarini uglertermik ishlov berish usuli ishlab chiqilgan bo'lib, bunda chiqindilar saqlagan 80 % xrom metallga o'tkazilib, qolgan 20 % dan xavfsiz shishasimon qotishma olinib, qayta ishlangandan so'ng qurilish materiali sifatida qo'llaniladi[4].

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, charm va mo'yna sanoati ishlab chiqarish chiqindilaridan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Jumladan, mezdrash jarayonida hosil bo'ladigan mezdra chiqindilarini qayta ishlab ulardan charm sanoatining o'zi uchun sirt faol modda olish maqsad qilib belgilandi.

Asosiy qism. Sirt faol moddalar charm-mo'yna sanoatida keng qo'llaniluvchi kimyoviy modda bo'lib, ularning ba'zilar sanoatda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sirt faol moddalarni qo'llash teri tarkibidagi yog'larni, iflosliklarni ketkazishda, derma bilan sochlarni susaytirishda, charmlarga gidrofoblik va boshqa bir qator xususiyatlar berish maqsadida qo'llaniladi. Sirt faol moddalar charm sanoatining qaysi jarayonlarida qo'llanilishi quyidagi rasmda keltirib o'tilgan (1-rasm).



1-rasm. Sirt faol moddalarning charm sanoati jarayonlarida qo'llanilishi

Sirt faol moddalarni ivitish jarayonida qo'llash teri tarkibidagi yog' moddalarini, iflosliklarni ketkazib, terining ho'llanishini ta'minlaydi va reaksiya qobiliyatining oshishiga yordam beradi. Kullash jarayonida sirt faol moddani natriy sulfidi bilan birgalikda qo'llash orqali sochning derma bilan bog'lanishini susaytiradi va jarayonning samarali borishiga imkon yaratadi [5].

Junsizlantirishdan keyin olib boriladigan yuvish jarayonlarida, yog' va iflosliklardan tozalash maqsadida ham quritish jarayonidan oldin sirt faol moddalar qo'llaniladi. Oshlash jarayonlarini olib borishdan oldin, sirt faol moddalarni yog'sizlantirish maqsadida qo'llash juda samarali hisoblanadi. SN-22SH va SN-22S sirt faol moddalari charm ishlab chiqarish jarayonlarida ho'llovchi-yog'sizlantiruvchi sifatida keng qo'llanilsa, SN-N7 hamda SN-23-50 moddalari mo'yna ishlab chiqarishda foydalaniladi [6].

Xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishiga ko'ra, aminooksidlarni charm ishlab chiqarishning ivitish va kullash jarayonlarida qo'llash charmning xossalarini bir muncha yaxshilab, sifatli charm olishga va charmning yuza qismida g'ijimlar paydo bo'lishining oldini olishga yordam beradi. Yog'sizlantirish jarayonining turli xil usullarida esa, yog'sizlantirishning to'g'ri va puxta amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Junni yuvish jarayonida aminooksidlar junni nisbatan yumshoq bo'lishini, shuningdek, uning oqlik va tozaligini ta'minlab beradi. Shu bilan birga, yaxshi biologik parchalanish xususiyatiga egaligi aminooksidlarning ahamiyatini oshiradi [7].

Tadqiqotchilar tomonidan ikki oksidli aminlar va bir oksidli yog' saqlagan aminooksidlarning anaerob va aerob biologik parchalanish xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, bunda aerob biologik parchalangan CO₂ dan foydalanilgan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, aminooksid asosidagi uchta sirt faol moddalar aerob sharoitda biologik yaxshi parchalanish xususiyatiga ega ekanligi, faqat alkilamidaminooksid anaerob sharoitda oson parchalanish xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Photobacteriumphosphoreum va Daphnia magna larga nisbatan toksinligi o'rganildi. EC(50) bakteriyasi 0,11 dan 11 mg/l gacha bo'lgan aminooksid asosidagi sirt faol moddalar toksin ta'sirga sezgirroq ekanligi aniqlandi. Eng past suv toksinligini yog'li amidoaminooksid moddasini ko'rsatdi [8]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mazkur moddalarni ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llash nisbatan xavfsizroq hisoblanadi.

Xitoylik olimlar tomonidan tadqiq qilingan ishda bir qator noionogen qisqa zanjirli ftorli sirt faol moddalar (Fn-Fn, bu yerda n = 2, 4 yoki 6) tayyorlanib, xromlangan echki terisini yog'lash jarayonida

yordamchi modda sifatida qo'llanilgan. Ushbu noionogen qisqa zanjirli ftorli sirt faol moddalarning kimyoviy tuzilishi FTIS (Fure transformasion infraqizil spektroskopiya) bilan tavsiflanib, molekulyar og'irligi GPX (gel singuvchanlik xromotografiyasi) analizlari orqali aniqlangan. Sirt tarangligini o'lchash natijalarida bu uchta ftorli sirt faol moddalar mukammal sirt faollikni namoyon etdi. Fn-Fn turi va dozasi, shuningdek, yog'lash haroratining xromlangan echki terisini yog'lash xususiyatlariga ta'siri, olingan charmning yumshoqligi va fizik-mexanik xususiyatlari tekshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, charm massasiga nisbatan 1% da 40°C haroratda qo'llanilgan F4-F4, charmning umumiy xossalarini, yumshoqligi va fizik-mexanik xossalarini yaxshilanganligi uchun charm yarimmahsulotini yog'lash jarayonida qo'llash uchun eng optimal variant sifatida tanlab olindi. Bundan tashqari, Fn-Fn bilan ishlov berilgan charm kollagenining morfologiyasi va gidrofoblik xususiyatlari o'rganilib, charmni yog'lash jarayonida Fn-Fn qo'shilishi kollagen tolalarining ajralishiga yordam berishi va charm yuzasining suvga barqarorlik xususiyatini oshishiga yordam beradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni aytish mumkinki, noionogen qisqa zanjirli ftorli sirt faol moddalar charm sanoatida yog'lash jarayoni uchun qo'shimcha sifatida qo'llanilishi mumkin [9-10].

Neft-kimyo mahsulotlarini sintez qilish yo'li bilan olingan sirt faol moddalar bilan solishtirganda, o'simlik yog'idan olingan sirt faol modda ekologik tozaligi va yuqori darajadagi faolligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot ishida dissimetrik gemini-sulfosuksinat sirt faol moddalari (DGSSFM) o'simlik yog'laridan sintez qilingan. Olingan mahsulot tuzilishi FT-IR (infraqizil yutilish spektirini hosil qilish orqali molekuladagi kimyoviy bog'lanishlarni aniqlash) va NMR (molekulalarning fizik va kimyoviy xossalarini aniqlash) tajribalari orqali tasdiqlangan. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, DGSSFM moddasi sirt taranglik kuchini kamaytirish, yaxshi emulsiyalanish va namlanish xususiyatiga hamda yomon ko'piklanish xususiyatlarni ko'rsatdi. Mazkur modda yog'lovchilik xususiyatini ham namoyon etdi. Charmni yog'lantirishda DGSSFM ni yog'lovchi agent sifatida qirtirlangan charm massasiga nisbatan 8% ga qo'llanilganda samarali yog'lantirishga erishildi. Bu esa o'simlik yog'idan sintez qilingan DGSSFM ham sirt faol ham yog'lovchi modda sifatida qo'llash imkonini bergan [11].

Shuningdek, olimlar tomonidan metall moddalarning yog'sizlantirishda ikkilamchi spirtning etoksilangan noionogen sirt faol moddalarini xiralanish nuqtasiga va gidrofil-lipofil balans soniga ta'siri o'rganilgan. Unda ikkilamchi spirtning etoksilangan noionogen sirt faol moddalari 3, 7, 9, 12 va 20 molli nisbatlari olingan. Turli xil haroratda tekshirilganda, yuqori haroratda olib borilgan yog'sizlantirish jarayoni, past haroratda olib borilgan jarayonga nisbatan samarali natija bergan. Faqat 3 mol nisbatdagi sirt faol moddada qo'piklanish hodisasi kuzatilmagan. Ko'mir tarkibidan ushbu sirt faol modda metall moddalarini yog'sizlantirish jarayonida qo'llash uchun tavsiya etilgan [12].

Sirt faol moddalarning charm sanoatidagi ahamiyatidan kelib chiqib, charm sanoatidan chiqindi sifatida chiquvchi ikkilamchi mahsulotlardan sirt faol modda yaratishga qaror qilindi. Shu asosda, eng avvalo, xorijiy va mamlakatimiz olimlarining bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganib chiqildi. Xususan, pokistonlik olimlar [13] tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishida kullash jarayondan keyin chiquvchi mezdradan charmga gidrofob xususiyat beruvchi sirt faol modda olingan. Ushbu moddani olish jarayonida, avval, mezdra toza suvda yuvilib, mezdra massasiga mos ravishda 2 % nisbatda ammoniy sulfat bilan mezdra tarkibidagi kuldan tozalangan. Ushbu jarayondan so'ng magniy oksidi va natriy gidrooksid bilan gidrolizlanib, 150-250 °C haroratda avtoklava jihozida 2 soat davomida jarayon olib borilgan. Keyingi bosqichda umumiy massa hosil qilmagan bo'laklar ajratib tashlangan, hosil bo'lgan quyuv massa sirt faol modda tayyorlashning keyingi bir necha bosqichlaridan o'tgan. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishida charmlar uchun gidrofoblik xususiyati beruvchi SFMni chiqindi mahsulot mezdra tarkibidan olinishiga qaramay, jarayon o'ta murakkabligi va uzoq vaqt talab etish bilan uni qo'llashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Shuningdek, yana bir tadqiqot ishida turli uzunlikdagi gidrofil guruhlar va lipofil guruhlariga ega bo'lgan polipeptid sirt faol moddalar kollagen gidrolizat polipeptidlaridan Shotten-Baumann reaksiyasi orqali sintez qilingan. Xrom saqllovchi charm chiqindilaridan kollagen gidrolizatining polipeptidlari ishqoriy ravishda gidroliz qilish orqali olingan. Fure transformasion infraqizil spektroskopiya polipeptid sirt faol moddalarning sintezi ijobiy natijalarni tasdiqladi. Bundan tashqari, sirt faol moddalarning sirt faolligi gidrofil va lipofil guruhlar uzunligining sirt tarangligi, ko'piklanuvchanligi, ko'pikning barqarorligi, namlanish qobiliyati va gidrofil-lipofil balansi qiymati kabi xususiyatlarga ta'sirini aks ettirish uchun sinovdan o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kollagen gidrolizatsidan tayyorlangan gidrofil guruhlarining uzunligi nisbatan kamroq bo'lgan sirt faol moddalar pastroq sirt tarangligiga va yaxshi ko'piklilikka, ko'pikning barqarorligiga va namlash qobiliyatiga ega bo'lib, ushbu sirt faol moddalarni namlovchi sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rsatadi. Aksincha, ko'proq uzunlikka ega bo'lgan lipofil guruhli sirt faol moddalarning sirt tarangligi sust va yomon ko'piklanish xususiyati, ko'pikning barqaror emasligiga va yaxshi

namlanmaslik xususiyatlarini o'zida aks ettirdi. Oleoil lipofil guruhining C=C bog'lanishining mavjudligi sirt tarangligini pasaytirdi. Kollagen gidrolizatidan tayyorlangan polipeptid sirt faol moddalar nafaqat o'zida xrom saqlagan charm chiqindilaridan samarali foydalanishga, balki atrof-muhitning ifloslanishini oldini olishga va charm sanoatining barqaror rivojlanishiga yordam berishi mumkin [14].

Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, sanoat chiqindilaridan qayta foydalanish, nafaqat sifatli mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi, balki atrof-muhitga zaharli chiqindilarni chiqarilishining oldini oladi va bu ekologiya yoxshilanishiga olib keladi.

Oqsil va yog' saqlagan chiqindi mahsulot mezdra mahalliy charm va mo'yna ishlab chiqarish korxonalarida juda ko'p miqdorda hosil bo'ladi. Ulardan qayta foydalanish hisobiga mahsulot assortimentini kengaytirish bugungi davr talabidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yirik shoxli mol terilarni mezdralashda hosil bo'ladigan mezdra chiqindisi mahalliy korxonalardan keltirilib, laboratoriya sharoitida Sokslet apparatidan foydalanilgan holda mezdra tarkibidagi yog'ni ajratib olindi. Olingan mezdra yog'ining gazoxromotogramma usuli asosida kimyoviy tarkibi o'rganildi (1-jadval).

1-jadval.


Sokslet apparatida olingan mezdra yog'ining kimyoviy tahlilidagi yog' kislotalari tarkibi

№	Yog' kislotalarining nomi	Mezdra yog'ining yog' kislotalari tarkibi, %
1.	Kaprin, 10:0	0,08
2.	Laurin, 12:0	0,08
3.	Miristin, 14:0	3,16
4.	Miristolein, 14:1	0,93
5.	Pentadekan, 15:0	0,34
6.	Palmitin, 16:0	28,45
7.	Palmitolein, 16:1	3,79
8.	Margarin, 17:0	0,74
9.	Geptadesen, 17:1	0,66
10.	Stearin, 18:0	14,69
11.	Olein, 18:1	39,48
12.	Elaidin (trans-9-oktadesen yog'i), 18:1	4,17
13.	Linol, 18:2	2,27
14.	Linolen, 18:3	0,58
15.	Araxin, 20:0	0,13
16.	Eykozen, 20:1	0,45
$\sum_{\text{to'yingan YoK}}$		47,67
$\sum_{\text{to'vinmagan YoK}}$		52,33




Tahlil natijalariga ko'ra, to'yingan yog' kislotalari miqdori 47.67 % va to'vinmagan yog' kislotalari miqdori 52.33 % ni tashkil etib, undan hosil bo'lgan yog' tarkibida eng ko'p miqdorda olein, palmitin, stearin yog' kislotalari mos ravishda 39.48, 28.45 va 14.69 % ni tashkil etdi. Yog'larning kimyoviy tarkibini aniqlash, mezdra yog'idan nafaqat yog'lovchi modda, balki sirti faol modda olish imkonini mavjudligini ko'rsatdi.

Yog'lar - gliserin va yog' kislotalarining murakkab efiri hisoblanadi. Sirt faol moddalar olish uchun dastlab yog' tarkibidan yog' kislotalarini ajratib olinadi. Buning uchun yog'ni ishqoriy muhitda gidrolizga uchratiladi.

Yog' kislotalari tarkibi to'yingan va to'vinmagan yog' kislotalari aralashmalaridan tarkib topganligi uchun, yog'ning tarkibida ko'p miqdorda mavjud bo'lgan yog' kislotalarining asosiy vakillari asosida dastlabki reaksiya mexanizmlari tuzildi:




Bunda gliserin va yogʻ kislotalarining natriyli tuzi hosil boʻladi.




Hosil boʻlgan gliserin va yogʻ kislotalarining natriyli tuzi aralashmasiga kislotaligi yuqori boʻlgan kislota taʼsir ettirganda, gliserin, natriy va yogʻ kislotalari ajralib chiqadi. Bu aralashma tarkibidagi yogʻ kislotalari suvda erimaydi, gliserin va hosil boʻlgan natriy xlor suvda eriydi. Bunda aralashma ikki qismga ajraladi va ajratish voronkasida ajratib olinadi.


Bu yogʻ kislotalaridan vodorod xloridni kislotaligi yuqori boʻlganligi sabab yogʻ kislotalaridan metallni oladi. Natijada erkin yogʻ kislotalari hamda natriy xlorid hosil boʻladi.



Olein kislota natriy gidroksidi natriy oleat suv




Stearin kislota natriy gidroksidi natriy stearat suv




Palmyetin kislota natriy gidroksid natriy palmitat suv

Yogʻ kislotalarning kislotaligi suvdan kuchli boʻlganligi sababli shu kislotalarning natriyli tuzi hosil boʻladi.


Odatda yuvuvchi vositalar gliserin va yogʻ kislotalarining natriyli tuzidan quyuq eritma (sovun yelimi) koʻrinishida hosil boʻladi. Aralashmadan sof yogʻ kislotalarini ajratib olish, toza sirt faol moddalarning hosil boʻlishiga olib keladi. Jumladan, natriy gidrooksida ishtirokida olingan sirt faol moddaning agregat holati qattiq boʻlib, anionaktiv SFMLar [15] turiga kiradi.



Olein kislota kaliy gidroksid kaliy oleat suv



Stearin kislota kaliy gidroksid kaliy stearat suv



Palmetin kislota kaliy gidroksid natriy palmiat suv

Kaliy gidroksidi bilan ishlov berilganda hosil boʻladigan mahsulotning agregat holati yumshoq yoki suyuq boʻlib, qoʻllanilishi jihatidan hammabop yoki qulay hisoblanadi va anionaktiv sirt faol moddadir.

Xulosa. Olib borilgan nazariy tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, charm sanoati chiqindisi hisoblangan mezdrani qayta ishlash natijasida mezdradan foydalanish assortimentini kengaytirish bilan bir qatorda, toza hamda sifatli mahsulot hisoblangan sirt faol moddalar olish mumkin. Shu bilan birga, bu teri chiqindisini charm sanoatida qayta foydalanish va chiqindisiz texnologiya yaratish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Бенькевич К., Гжегожевская У. Использование коллагеновых волокон для медицинских целей // Кожевенно-обувная промышленность. 1984. № 12. С. 15.
2. Богданова И. Е. Современные направления переработки коллагенсодержащих отходов кожевенного производства // Кожевенно-обувная промышленность. 2007. № 2. С. 30–31.
3. Сакулина А. А., Левина Н. Т. Использование свиного гольевого стилка для производства белковой колбасной оболочки // Кожевенно-обувная промышленность. 1998. № 8. С. 25.
4. Использование и утилизация хромсодержащих отходов кожевенного производства / О. С. Комаров [и др.] // Современные направления развития производственных технологий и робототехника: материалы Междунар. конф., Могилев, 22–23 апр. 1999 г. / Могилев. машиностроитель- ный ин-т. Могилев, 1999. С. 235.
5. M.B.Shamsiyeva. Tarmoq kimyoviy materiallari. Darslik. Buxoro-2024. 11-12 betlar.
6. Каталог химических препаратов для кожевенной промышленности ООО “Шебекинская индустриальная химия” новинки и лидеры продаж. Шебекино, 2022. 90 стр.
7. F.Nevzer, H. Sarac, A. Volkan, I. Reetz. New Generation Emulsifiers for the Leather Industry. XXXII. Congress of IULTCS May 29th–31th 2013 Istanbul/TURKEY. <https://www.researchgate.net/publication/280156521>

8. García, M.T., Campos, E., Ribosa, I., 2007, *Biodegradability and ecotoxicity of amine oxide based surfactants*, *Chemosphere* 69(10):1574-1578. doi: 10.1016/j.chemosphere.2007.05.089. Epub 2007 Jul 12.
9. Y. Shen, Y. Jin, Sh. Lai, L. Shi. *Nonionic Short-Chain Fluorinated Surfactants in the Fatliquoring of Chrome-Tanned Goat Skin*. *Journal of the American Leather Chemists Association* 115(7):255-262. June 2020. DOI:10.34314/jalca.v115i7.3833
10. M. Shamsieva, Kh. Makhammadieva. *Leather obtained on the basis of fuzel oil and crude fatty acids of cotton soapstock - A fattening agent for fatliquoring leather*. *Proceedings of the III International Conference on Advances in Science, Engineering, and Digital Education*. AIP Conf. Proc. 2969, 060020-1–060020-7; <https://doi.org/10.1063/5.0187471>.
11. Jianzhong M., Jianjing G., Hongdi W., Bin L. *Dissymmetry Gemini sulfosuccinate surfactant from vegetable oil: a kind of environmentally fatliquoring agent in leather industry*. *ACS Sustainable Chemistry & Engineering* 5(11). September 2017. DOI:10.1021/acssuschemeng.7b02662
12. Su-Byung Jeon, Byung-Ki Son, Ji-Won Choi, Injoon Son. *Degreasing efficiency of electroplating pretreatment process using secondary alcohol ethoxylate as nonionic surfactant*. *Appl. Sci.* 2022, 12, 11285. <https://doi.org/10.3390/app122111285>
13. Hafiz R. N., Beena, Z., Hanny O., Uzma N. and Barkat A.S. *Preparation of Protein based Surfactants from Leather Waste Fleshings and their Reutilization in Leather as a Water Resisting Agent*. *Journal of the chemical society of Pakistan* 34(5):1130-1133, October 2012.
14. Y. Li, D. Sun, Ch. Jiang, H. Ding. *Preparation of Polypeptide Surfactants Using Chromium-Containing Waste Leather: Effect of Hydrophilic and Lipophilic Groups*. *Journal of Surfactants and Detergents* 24(6). April 2021. DOI:10.1002/jsde.12513
15. Вережников В.Н., Гермашева И.И., Крысин М.Ю. *Коллоидная химия поверхностно-активных веществ. Учебное пособие для вузов*. Санкт-петербург. Москва.Краснодар 2015. 304 с.

ЎТЛОҚИ-АЛЛЮВИАЛ ТУПРОҚЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ЎРГАНИШ

Тўхтаева Гулшан Пўлотовна,
“ТИҚХММИ” МТУ Бухоро табиий
ресурсларни бошқариш институти, ассистенти
gulshantoxtayeva7@gmail.com

Шодиева Сурайё Ниёзовна,
Иброҳим Барака хк. иш юритувчиси
s9978139@gmail.com

Мирзамуротов Мишод Фарход ўғли,
“ТИҚХММИ” МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти талабаси
mirzamuradovmirshod4@gmail.com

Аннотация. Сугориладиган ўтлоқи - аллювиал тупроқлари қўнғир бўз, чўлли қумли ва сур тусли тупроқлардан иборат. Гидрогеологик мелиоратив шароити Бухоро вилоятида сугориладиган ер майдонларининг ўзига хос хусусиятларига эга. Тупроқ таркибидаги тузларнинг тўпланишида асосий кўрсаткич, сизот сувларининг жойлашиш чуқурлиги, даладан сувнинг буғланиши ҳисобланади. Бухоро вилоятининг қишлоқ хўжалиги учун сизот сувлари сатҳининг йил давомида ўзгариб туриши муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: ўтлоқи-аллювиал тупроқлар, кучсиз ва ўрта шўрланган тупроқлар, тупроқларнинг таркибида гипс учраб туриши, механик таркиби, сизот сувлар, сугориладиган тупроқлар, гидрогеологик мелиоратив шароит.

ИССЛЕДОВАНИЕ МЕЛИОРАТИВНОГО СОСТОЯНИЯ ОРОШАЕМЫХ ЛУГОВО-АЛЛЮВИАЛЬНЫХ ПОЧВ

Аннотация. Лугово-аллювиальные почвы орошаемый представлены буро-серыми, пустынными песчаными и бурыми почвами. Гидрогеологические мелиоративные условия имеют специфические особенности орошаемых земель Бухарской области. Основным показателем накопления солей в почве является глубина просачивания воды, испарение воды с поля. Для сельского хозяйства Бухарской области важно то, что уровень фильтрационных вод меняется в течение года.

Ключевые слова: лугово-аллювиальные почвы, слабо-и среднесоленные почвы, наличие гипса в составе почв, механический состав, фильтрационные воды, орошаемые почвы, гидрогеологические условия улучшения.

STUDY OF THE RECLAMATION OF IRRIGATED GRASSLAND-ALLUVIAL SOILS

Abstract. Meadow-alluvial soils in consist of brown-gray, desert sandy and brown soils. Hydrogeological reclamation conditions have specific characteristics of irrigated land areas in Bukhara region. The main indicator of the accumulation of salts in the soil is the depth of seepage water, evaporation of water from the field. It is important for the agriculture of Bukhara region that the level of seepage water changes throughout the year.

Key words: meadow-alluvial soils, weak and moderately saline soils, presence of gypsum in the composition of soils, mechanical composition, seepage waters, irrigated soils, hydrogeological reclamation conditions.

Кириш. Тупроқларнинг шўрланиш даражаси Бухоро вилоятида ҳам анчагина кучли бўлиб, вилоятнинг Ромитан, Пешкў, Олот, Қорақўл, Жондор ҳамда Бухоро туманларида шўрланиш даражаси юқори бўлиб ҳисобланади. Бухоро вилояти шароитида ўтлоқи - аллювиал тупроқлари қўнғир бўз, чўлли қумли ва сур тусли тупроқлардан иборат. Гидрогеологик мелиоратив шароити Бухоро вилоятида сугориладиган ер майдонларининг ўзига хос хусусиятларига эга.

Асосий қисм. Бухоро вилояти Ромитан туманининг шўрланишга учраган суғориладиган тупроқлари кучсиз ва ўрта шўрланган бўлиб, механик таркиби бошқа туманлардан фарқ қилади. Тупроқлар асосан оғир қумоқли, қумоқли-қумли ва лойли механик таркибга эга.

Ромитан тумани суғориладиган тупроқларини шўрланганлик даражасига кўра тавсифи

Шўрланиш даражаси	Жами суғориладиган ерлар, га	Шўрланмаган, га	Кучсиз, га	Ўртача, га	Кучли, га	Жуда кучли, га
Майдони, гектар тартибда	22948,0	0	13841,5	7103,0	1408,9	594,6
Майдони, % тартибда	100	0	60,32	30,95	6,14	2,6

Ромитан туманида жами суғориладиган ерлари 22948,0 гектар бўлиб, шундан шўрлангани кўра кучсиз шўрлангани 13841,5 гектар, ўртача шўрлангани 7103,0 гектар, кучли шўрлангани 1408,9 гектар, жуда кучли шўрлангани 594,6 гектар майдонни ташкил этади.

Ўтлоқи-аллювиал тупроқларининг характерли томони шундаки, уларнинг таркибида гипс учраб туради. Юқорида келтирилган жадвалдан кўриниб турибдики, гидроморф тупроқларда ер ости сизот сувларининг яқинлиги асосан амал даврида 2,20-2,50 метрни ташкил қилгани, шўрланишга сабаб бўлади.

Экинларни суғориш тартиби тупроқнинг туз режимига, яъни тузларнинг миқдори сизот сувлар таркибига ҳамда уларнинг типлари суғориладиган майдонларда катта таъсир кўрсатади.

Шўрланиши ва иккиламчи шўрланишига таъсир этувчи омилларнинг суғориладиган тупроқларда асосийси, мунтазам суғориш ишларини олиб борилиши ва сизот сувларнинг ер ости ҳаракати ҳисобланади. Суғоришга айрим ҳолларда меъёрдан ортиқ сув сарфланади. Суғориш жараёнида сизот сувларнинг ҳаракати бошқарилмайди. Ерларни қайта шўрланишига сабаб, ўртача ва кучли минераллашган сизот сувлари ер юзасига яқин жойлашганда илдиз тарқалган фаол қатламида кўп туз тўпланади. Ҳар бир ҳудуднинг сизот сувлари тартибини ва уларнинг минераллашганлик даражаларини ўрганиш муҳим. Ер ости сизот сувларини механик таркиби ҳамда суғориш жараёнида тупроқ типи бошқа хоссаларига боғлиқ ҳолда сув сарфланса, бошқариш тизимли йўлга қўйилса, тупроқларнинг шўрланиши туманларда учрамайди.

Тупроқ таркибидаги тузларнинг тўпланишида асосий кўрсаткич, сизот сувларининг жойлашиш чуқурлиги, даладан сувнинг буғланиши ҳисобланади. Бухоро вилоятининг қишлоқ хўжалиги учун сизот сувлари сатҳининг йил давомида ўзгариб туриши муҳим аҳамиятга эга.

Бухоро вилояти ерлари майдон сифатида эски суғориладиган, катта майдонини асосан экин сифатида пахта экини эгаллаган. Шунинг учун тупроқнинг сув-физик хусусиятларини билмасдан амалга ошириб бўлмайдиган рационал суғориш режимларини ишлаб чиқиш, сув-физик хоссаларини тадқиқотларини ўрганиш биринчи даражали вазифадир. Тупроқ пойдеворини қўйиш амалиёти шуни кўрсатдики, ҳажм ва солиштира оғирлик, умумий ғовақлик каби хусусиятларни ўрганиш билан бир қаторда чегараланган дала нам сизими (ЧДНС) ва тупроқ горизонтларидаги намлик захирасини аниқлаш долзарб бўлиб қолди.

Бундан ташқари, олинган маълумотлардан қишлоқ хўжалик экинларининг суғоришда озуқа режимларини ишлаб чиқишда ва мелиоратив лойиҳалашда фойдаланиш мумкин.

Тупроқнинг физикавий хоссаларига, унинг структураси, сув, ҳаво, иссиқлик, умумий физик-механикавий хоссалари киради. Тупроқнинг физикавий хоссалари кўплаб омилларга, жумладан, тупроқнинг қаттиқ, суюқ, газсимон қисми ва тирик фазалари таркиби, улар нисбати ва ўзаро таъсири ҳамда динамикаси сингарилар билан бевосита боғлиқдир.

Ўзанинг амал даврида ер ости сувлари сатҳининг ўртача бўлиши билан тажриба учун сув сарфининг тўлиқ бўлмаганлигини А.Н.Костяковнинг тенгламасидан фойдаланиш мумкин

$$M = E - (10 \cdot M \cdot \mu \cdot \Delta W + W_{gr} - W_f), \quad m^3/га,$$

бу ерда E – сув истеъмоли, $m^3/га$;

μ – ёғиндан фойдаланиш коэффициенти;

P – вегетация давридаги ёғин миқдори, мм;

ΔW – ўсимлик илдиз қатлами наmidан фойдаланадиган сув ҳажми, $m^3/га$;

W_{gr} – фаол қатламга сизот сувларидан қирим сув ҳажми, $m^3/га$;

W_f – суғориш сувининг ер усти ва фаол қатлам остига бўлган ташлама-исрофи, $m^3/га$;

Сув истеъмоли элементларини ҳисоблаш учун тупроқнинг бир метр қатлами қабул қилинди.

Сув истеъмоли коэффициенти - бу сув истеъмоли қийматларининг пахта ҳосилига нисбати:

$$E = \sum (E - P), \quad m^3/га,$$

Бу ерда $E = 0,458 \cdot \gamma \cdot \sum T \cdot (t + 17,8)$ - мазкур ойда ялпи буғланган сув, мм;

P - мазкур ойда ёққан ёмғир миқдори, мм;

γ - экин томонидан сувни сарфлаш жадаллиги коэффициенти;

$\sum T$ – мазкур ойда куёшли соатларнинг миқдори, йиллик миқдордан % ҳисобида; t – ҳавонинг ўртача ойлик ҳарорати, $^{\circ}C$.

Тупроқнинг механик таркиби суғориладиган деҳқончилик шароитида муҳим аҳамиятга эга. Тупроқнинг суғориш тартиблари элементларини белгилашда тури, механик таркиби, морфологик тузилиши, агрофизик (тупроқ хажм ва солиштира массаси ҳамда ғоваклиги) сув хоссалари, намлик миқдори, чекланган дала нам сифими, сув ўтказувчанлиги ва сизот сувининг капилляр найчалари орқали пастдан юқорига кўтарилишининг ҳамда минерал озиқа миқдорлари ҳам тупроқнинг таркибидаги органик моддалари ўсимликни сув билан таъминлашда катта аҳамиятга эга. Соз тупроқлар кумлоқ ва кумли тупроқларга нисбатан ўсимликлар учун озиқа кул моддаларни кўпроқ сақлайди. Тупроқнинг механик таркиби синдириш қобиляти, ерга чириндининг ва озиқ моддаларнинг тўпланишида ҳам муҳим рол ўйнайди. Тупроқнинг қуйи қатламларига тушиб борган сари оч тусли кул ранг, қуруқ донадор, ўрта кумоқ ва унумдор соз тупроққа ўзгариб бориши ва ҳайдалма қатлам остида агроирригацион ётқизиклардан ташкил топган. Кул ранг тупроқнинг намлиги ошиб борганлиги сабабли тупроқнинг зичлашиб бориши ҳам кузатилди. Механик таркибига кўра, ерга ишлов бериш тизимида ўғитлаш меъёри, дала ишларининг муддатлари белгиланади. Тупроқнинг ҳаво ва иссиқлик режимлари, сув, озиқа, экинларни суғориш меъёрлари, муддатлари ва суғориш сонлари, ерга ишлов бериш жараёнида тупроқнинг механик таркибини иноватга олган ҳолда амалга оширилади. Структурасиз оғир тупроқлар ноқулай физик ва физик-механик хоссаларига эга. Тупроқнинг механик таркиби турли хил катталиқдаги тупроқ заррачаларнинг умумий миқдори 0,01 мм билан белгиланади (1 мм.дан $<0,001$ мм заррачалар). Тажриба натижаларида тупроқнинг қатлами (0-30 см) да зичланган ўрта кумоқ. Н.А.Качинскийнинг классификацияси бўйича тупроқнинг механик таркиби баҳоланди.

Тупроқнинг механик таркиби бўйич Смирнова Л.А. (2005), ғўзанинг ўсиши, ривожланиши ва юқори ҳосил олинганлигини исботлаган, бунда тупроқнинг кичик кесакли ва майда заррачали структуралар миқдори 15,4-21,1 фоиз бўлгани, типик бўз тупроқларда агрегатлар ўлчами 5-1 мм бўлганда намликнинг буғланишига сарфланган энг кам буғланиши. Механик таркибли тупроқлар унумдорлик бўлганлиги ўсимликларни озиқлантириш бўйича агротехник тадбирлар олиб борилган. Тупроқда ўсимлик ҳаёти учун зарур бўлган сув ва минераллар мавжуд, ғўза ҳам тупроқдан оксилларни, ёғларни, витаминларни, ўсиш моддаларини ўзлаштиради, улар ўсимликнинг ўсиши ва ҳосили учун зарурдир. Сув тупроқдан минералларни олиши, ўтказувчанлик тизими орқали озиқа моддаларининг узлуксиз оқими, уруғларнинг униб чиқиши, фотосинтез, эластиклик, ҳужайра шакли учун зарурдир. Сув ўсимликларнинг ҳаётий фаолиятини белгиловчи муҳим омил ҳисобланади. Тупроқдан илдишлар орқали сув ва унда эриган минерал тузлар ўсимликларга киради натижада минерал озиқланиш содир бўлади. Энг муҳими, ўсимлик азот, калий ва фосфорга муҳтож.


Хулоса. Шўрланган тупроқларда ўсимликлардаги фосфор миқдори асосан тупроқдаги мавжуд шакллари таркиби билан белгиланади, озиқлантириш шароитлари яхшиланиши билан ортади. Тупроқ унумдорлиги асосан фосфор, калий ва азотнинг мавжуд шакллари миқдори билан белгиланади. Фосфор кишлок хўжалиги экинлари ҳаётида жуда муҳим рол ўйнайди. Кўпгина биокимёвий жараёнлар фақат унинг иштирокида амалга оширилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Костяков А.Н. Основы мелиорации. Сельхозгиз, Москва. 1960, 411. С.
2. Вильямс В.Р. Собранные сочинения, том VII.Травопольная система земледелия. Изд., с/х литературы, Москва, 1951, 420 с.
3. Чаповская Е.В. Дрожжина Т.М.Исламов И. «Экономия времени и труда» Ж. с/х Таджикистана, 8,1973, 55-56 с.
4. Исломов И., Тухтаева Г.П. «Режим орошения хлопчатника сорта Бухара – 8 в условиях аллювиально – луговые почвы Бухарской области» Хоразм, 2021.

5. Kabildjanov Alexander, Bozorov Elmurod, Okhunboboyeva Charos, Tuhtaeva Gulshan. «Intellectualization of Decision Making Support in Tasks of Optimization of Complex Technical Systems based on Anfis Neuro-Fuzzy Network» *Annals of the Romanian Society for Cell Biology* 2021.

6. A Anarbaev, O Tursunov, R Zakhidov, D Kodirov, U Vakhidov, E Bozorov, G Tuhtaeva, and A Babaev «Determination the installation efficiency of the evaporative air cooling in the greenhouse by temperature-moisture regime» *ICECAE* 2020.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.10.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344